



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TUPROQSHUNOSLIK-EKOLOGIYA KAFEDRASI.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Tabiiy fanlar fakulteti dekani

dots. B. Boysunov _____

“ _____ ” _____ 2017 yil

Tabiiy fanlar fakulteti 5630100- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi

yo'nalishi bitiruvchisi TO'RAXONOV IZZATILLOning

**“HISOR DAVLAT QO'RIQXONASINING BIOLOGIK XILMA-
XILLIKNI SAQLASHDAGI O'RNI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba: _____ To'raxonov Izzatillo

Rahbar : _____ Qudratov G'ulom

“ _____ ” _____ 2017-yil

Tuproqshunoslik-ekologiya kafedrasi

mudiri q.x.f.n. A.Xayriddinov

“ _____ ” _____ 2017-yil

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi

- sonli bayonnoma - may 2017 yil

Qarshi-2017 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3 bet
I. BOB ADABIYOTLAR SHARHI	
II. BOB HISOR QO‘RIQXONASI TERRITORIYASINING FIZIK- GEOGRAFIK O‘RNI	
2.1. Muhofaza qilinadigan hududlar va ularning tasnifi.....	14-20 bet
2.2. Geografik o‘rni, chegaralari va maydoni.....	21-23 bet
2.3. Geologik tuzilishi, relyefi, geologik yodgorliklari.....	23 bet
2.4. Iqlimi.....	23-25 bet
2.5. Hisor Davlat qo‘riqxonasi o‘simliklar qoplami va balandlik mintaqalari.....	25-32 bet
III. BOB HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASIDAGI O‘ZBEKISTON «QIZIL KITOBI»GA KIRITILGAN O‘SIMLIKLARI	
3.1. Noyob va yo‘qolish arafasidagi dorivor o‘simliklari.....	33-44 bet
IV. BOB HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASINING HAYVONOT OLAMI	
4.1 Hisor qo‘riqxonasidagi O‘zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvonlar.....	45-70 bet
4.2. Hisor Davlat qo‘riqxonasi bio xilma-xilligini muhofaza qilish chora-tadbirlari.....	71-75 bet
XULOSA	76 bet
TAKLIFLAR	77bet
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	78 bet

KIRISH.

Tabiat va jamiyat munosabatlari zanjirida insonning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri, tabiat resurslaridan foydalanishda asosiy xalqa hisoblanadi. Chunki tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati juda murakkab jarayon bo'lib, u aniq bir maydon va muayyan zamonda ro'y beradi. Demak ma'lum bir davrda o'zi yashab turgan va faoliyat ko'rsatayotgan hududga inson ta'sir ko'rsatib, uning tabiatini o'zgartiradi, tabiat o'zi o'zgarganda hamda inson ta'siri ma'lum bir mutanosiblikka ega bo'lgan taqdirda, tabiat o'z avvalgi holini tiklash qobiliyatiga ega bo'ladi. Tabiat komplekslarining shakllanishi xilma – xil tabiiy jarayonlarning biologik-xilma xillikning o'tmishi va hozirgi davrda qanday ekanligiga bog'liq. Shunday ekan, Janubiy O'zbekiston tabiati shakllanishida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan Hisor tog'lari, Hisor Davlat qo'riqxonasining bioxilma-xillikni saqlashdagi o'rnini o'rganish o'ta muhim masalalardan biridir. Hisor tog'lari vatanimizning eng baland tog'i bo'lishi bilan birga boshqa tog'larda deyarli kuzatilmaydigan doimiy muzliklari, mahobatli daralari, eng katta karst g'orlari, o'ziga xos paleontologik yodgorliklari, endemlik darajadagi yuqori bo'lgan flora va faunasi borligi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston o'zining barqaror rivojlanish uchun bio-xilma-xillik resurslarining muhimligini tan olgan holda, 1995 yilda bioxilma-xil to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shildi. Hukumat hamda konvensiya doirasidagi ustuvor majburiyatlarni bajarish uchun Respublikada Birlashgan millatlar tashkilotining Rivojlanish Dasturi va Global ekologiya jamg'armasi tomonidan faol qo'llab quvvatlangan «Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejasi» loyixasi tayyorlandi. Mazkur loyixa hukumatning ijrochi va agenti sifatida harakat qiluvchi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Atrof muhitni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlashning eng samarali shakllaridan biri bo'lib tabiatni kompleks ravishda muhofaza qilishda qo'riqxonalarining ahamiyati juda katta.

Mavzuning dolzarbligi: Hisor davlat qo'riqxonasi Hisor tizma tog'lari bag'rida joylashgan bo'lib, o'zining biologik xilma-xilligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Tabiat boyliklaridan tobora ko'proq foydalanayotgan XXI asrda Hisor davlat qo'riqxonasi bioxilma xilligini yanada chuqur o'rganish va aholining barcha qatlamlari orasida ekologik savodxonlikni oshirish talab etiladi. etiladi. Shundan kelib chiqqan holda Hisor davlat qo'riqxonasining bioxilma-xillikni saqlashdagi o'rnini o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Qo'riqxonada tashkil etilgandan boshlab ilmiy bo'lim xodimlari tomonidan barcha tabiiy obyektlar va majmualarda kechadigan jarayonlarni tabiiy ko'rinish holatida o'rganish, ular xolatini monitoring qilish, qo'riqxonadagi tabiat majmualarini qo'riqlashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va taxlil qilish asosida targ'ibot-tashviqot olib borilgan.

Ishning maqsadi: Tabiatdagi bioxilma- xillikning muhofaza qilish bo'yicha bugungi kunda BMT va barcha mamlakatlardagi mutaxassislarning tashabbuslari bilan ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar tarqoq. Ushbu masala bo'yicha bajarilayotgan bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hozirgi davrda Hisor Davlat qo'riqxonasida o'simlik va hayvonot turlarini muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar to'plash, alohida muhofaza qilinadigan turlarni o'rganish va ushbu jarayonda Hisor Davlat qo'riqxonasi o'rnini taxlil qilishdan iborat.

Hisor davlat qo'riqxonasi tabiiy geografik sharoit hamda Biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilishdagi o'rnini o'rganish.

Ishning vazifalari:

- Hisor davlat qo'riqxonasi o'simlik va hayvon turlarining holatini o'rganish;
- Qo'riqxonada uchraydigan hayvonlarning hayot tarzini o'rganish;
- Hisor davlat qo'riqxonasida o'sadigan o'simlik va hayvon turlarining bioxilma-xilligini saqlashdagi o'rnini asoslash;

Xalqoro hamda O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan turlarni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: Hisor davlat qo‘riqxonasi hududidagi o‘simlik va hayvon turlarini holatini o‘rganish hamda unga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash. Shuningdek qo‘riqxonada uchraydigan Respublikamiz Qizil kitobiga kiritilgan turlarning soni, tarqalishi va hayvonlarning yashash tarzi o‘rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati: Hisor davlat qo‘riqxonasi o‘simlik va hayvon turlarining holatini ilmiy jihatdan o‘rganilish hamda taxlil qilish. Shuningdek Hisor qo‘riqxonada uchraydigan hayvonlarning yashash tarzi o‘rganilgan.

Ishning aprabatsiyasi: Ushbu bitiruv malakaviy ish 2016-2017 o‘quv yilida Qarshi DU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik va ekologiya kafedrasida qoshidagi Yosh ekolog ilmiy tugragida va kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan.

Ishning hajmi: Bitiruv malakaviy ish Kirish, 4 ta bob, xulosa, tavsiyalar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan hamda bet, 19 ta rasm 2 ta jadvaldan iborat.

1.BOB: ADABIYOTLAR SHARHI

Landshaftning butun komponentlarini muhofaza qilishda qo‘riqxonalar juda katta ahamiyatga ega. Qo‘riqxonalar bu tabiat etoloni bo‘lib, P.Baratov ma‘lumotlariga ko‘ra quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

Qo‘riqxonani tashkil etish orqali ma‘lum bir o‘lka yoki geografik zona tabiatning namunali tabiiy holicha kelajak avlod uchun saqlab qolinadi.

Qo‘riqxona – bu tabiat etoloni sifatida tabiat komplekslari yaxshi saqlangan maydonlar hisoblanib, unda tabiiy-territorial komplekslarning rivojlanish qonuniyatini, o‘zaro aloqasini, organizm bilan muhit o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan o‘rganiladigan tabiiy laboratoriyadir, undagi kuzatishlar asosida ilmiy prognozlar beriladi.

Qo‘riqxonalar soni va turi kamayib borayotgan o‘simliklar va hayvonlarni qo‘riqlash va kamaytirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Qo‘riqxonalar ov kasbkorlik hayvonlarini saqlash, ularni ko‘paytirishda ham ahamiyatlidir. Qo‘riqxonada bu hayvonlar shunchalik ko‘paydiki, uni ba‘zilarini ov qilishga ham ruxsat etildi.

Qo‘riqxonalar tabiatning ajoyib, qiziqarli, noyob joylarini (g‘or, qoya, ochilib qolgan jins, sharshara, buloq va boshqa) tabiiy holiga saqlab qolishda muhim vazifani bajaradi.

Qo‘riqxonalarning madaniy va estetik jihatdan ahamiyati katta. Ular orqali tabiatning ajoyib joylari keng omma orasida namoyon etiladi va tabiatni muhofaza qilish zarurligi targ‘ibot qilinadi[1].

Dunyo olimlari keyingi vaqtlarda insoniyatning tabiatga ta‘siri kuchayganligi oqibatida atrofimizni o‘rab olgan tabiiy muhitning keskin o‘zgarib, madaniy agrotsenoz landshaftlar maydoni keskin o‘zgarib, madaniy agrotsenoz landshaftlar maydoni kundan-kunga ortib borayotganini e‘tiborga olgan holda qo‘riqxonalar tashkil qilish va mavjudlarini saqlab qolish masalalariga barchaning diqqat e‘tiborini jalb qilmoqdalar. Qo‘riqxonalar barpo etish tufayli shu hududlar tabiatiga xos komponentlar, ya‘ni relyef shakllari, tog‘ jinslarining yer yuziga chiqib, ochilib

qolgan joylari, buloqlar, ko‘llar o‘simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlab turiladi, xullas har bir geografik zona yoki geografik o‘lka uchun harakterli bo‘lgan hududlar yoki tabiat komplekslarini ilmiy jihatdan, iqtisodiy, madaniy tomonidan hamda shu zonaning barcha tabiiy elementlarini o‘zida aks ettirgan hududlarini qo‘riqxonalar uchun ajratiladi. Bu joyning tabiati va uning komponentlari xalq boyligi sifatida saqlanadi. Shu tufayli avlodlar o‘sha qo‘riqxonalar orqali qum, cho‘l, dasht, o‘rmon, tog‘ landshaftlari va boshqa hududlarning tabiiy holda qanday bo‘lganligi haqida to‘la ma’lumot oladi.

Odamlarning xo‘jalik faoliyati tufayli sodir qilingan landshaftlariga moslasha olmagan hayvonlar va hududga xos tabiiy floraning bir qancha turlari faqat qo‘riqxonalarda saqlanishi mumkin[2].

O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxonalar 1926 yilda hozirgi Jizzax viloyatida Turkiston tog‘larida “Guralash” qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Bu qo‘riqxonalar 1960 yildan boshlab Zomin tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi deb yuritiladi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda yagona biosfera qo‘riqxonasi maqomidagi Chotqol qo‘riqxonasi 1947 yilda tashkil etilgan 1961 yilda hozirgi “Surxon” qo‘riqxonasining bir uchastkasi bo‘lgan “Paygambarorol” qo‘riqxonasi, 1976 yilda Hisor qo‘riqxonasining “Miroki” bo‘limi, 1977 yilda Arnast, 1978 yilda Abdusamad (Tabiat yodgorligi), 1975 yilda Qizilsuv, 1971 yilda Badayto‘qay, Qorako‘l, Zarafshon, Nurota, Varganzi qo‘riqxonalar tashkil etildi. Keyinchalik 1983 yilda Miroki va Qizilsuv birlashtirilib Hisor qo‘riqxonasiga aylantirildi. 1986 yilda “Surxon” qo‘riqxonasi tashkil etilib, mavjud Paygambarorol va Yangidan “Kuxitang” bo‘limlari faoliyat ko‘rsatiladi. Kitob geologik qo‘riqxonasi va O‘rta Osiyoda yagona Buxoro jayronlar pitemnigi ham Qo‘riqxonalar maqomida faoliyat ko‘rsatishmoqda[3].

Qo‘riqxonalarda yo‘lbars, arslon, qoplon, zubr, qulon, ilvirs, suv kalamushi, qizil g‘oz, arxar, jayron, oq laylak, qirg‘ovul, kaklik kabi hayvonlarni ko‘rish mumkin. Ovlanadigan hayvonlar va madaniy o‘simliklar turlarini ko‘paytirishda qo‘riqxonalar muhim rol o‘ynaydi, o‘simliklarni saqlash va ko‘paytirishda ularning

ahamiyati benihoya kattadir. Qo'riqxonalar turli o'simlik va hayvon turlarini, ularning genofondlarini ko'paytirish va saqlab qolishda ham muhim o'rin tutadi.

Respublikamizdagi qo'riqxonalar, milliy bog'lar va buyurtmalar ilmiy ishlarni olib borishda ayniqsa mamlakatimiz tabiatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlashda muhim ahamiyatga egadir[4].

Tabiiy qo'riqxonalarining vazifasi dastlabki landshaftlarni, uning o'ziga xos ekosistemi bilan tabiiy holda saqlashdan iboratdir, bunday qo'riqxonalarining barpo etilishi ayrim turlarning yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Tabiiy qo'riqxonalarda biologik muvozanatni buzadigan birorta ham ish o'tkazilmaydi. Bu yerda o'tkaziladigan ilmiy ishlar faqat kuzatishlar bilan cheklangan bo'ladi. Bunday kuzatishlar o'simlik va hayvonlarni tinch kuzatish, ularning rivojlanishlarining ekologik muhitlarini o'rganish bilan chegaralangan bo'ladi, ilmiy va ishlar uchun chegaralangan holda o'simlik va hayvonot dunyosidan namunalar olish mumkin. Yuqorida qayd etilgan masalalarning amalga oshishi ekologiya fanining istiqboli bilan bog'liq bo'ladi.[5].

O'zbekiston agrar mamlakat bo'lganligi uchun ham uning taraqqiyotida tabiiy biologik resurslarning holati muhim rol o'ynaydi.

XX asrning 60-80 yillarida qishloq xo'jaligi sektorining ekologik xavfli va noto'g'ri tashkil etilishi natijasida O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalarining biologik resurslariga jiddiy talofat yetkazildi. Orol dengizining qurib qolishi va orol bo'yi hududlaridagi ekologik, sotsial siyosiy inqiroz bunga yorqin misol bo'la oladi. Mamlakatni bunday holatdan olib chiqish, barqaror rivojlanishni ta'minlash bioxilma-xillikni saqlash va buzmasdan foydalanish mamlakatning rivojlanish rejalarida o'zining munosib aksini topishi zarur bo'ladi.[6].

“Tabiatni muhofaza qilish” tushunchasi tabiat qanday paydo bo'lgan bo'lsa, uni shundayligicha saqlab qolishga intilish, tabiatga ta'sirini to'xtalishi degan ma'noni bildirmaydi, albatta. Aholi sonining o'sishi va fan-texnika taraqqiyoti tabiiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni, yangi hududlarni ishga solishni, binobarin insonning tabiiy jarayonlarga yanada chuqurroq ta'sir etishini

talab qiladi. Shu fikrdan kelib chiqib, tabiatni muhofaza qilish deganda tabiiy resurlardan oqilona foydalanish va takror ishlab chiqarish, tabiiy muhitni yaxshilash tabiatning ayrim komplekslari va obyektlarini tabiiy holda saqlab, kelajak avlodga yetkazish tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilishning yetakchi vazifasi tabiatdan foydalanish jarayonida ularni qo‘riqlash va takror, qayta ishlab chiqarishni ta‘minlash hamda insonning tabiatga ta‘sirini optimallashtirishdan iboratdir.[7].

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida 9 ta davlat qo‘riqxonalari mavjud bo‘lib, ular 2231,7 kb.km maydonni, 2 ta milliy bog‘ 5987 kb.km maydonni egallaydi. Bu davlat qo‘riqxonalari noyob hayvon turlarini ko‘paytirish bo‘yicha bitta respublika markazi turlarni muhofaza qilish borasida faoliyat ko‘rsatib turibdi. Qo‘riqlanadigan hududlarning umumiy qo‘riqxona va davlat milliy bog‘larida 350 tur hayvonlar 700 tur o‘simliklar muhofaza qilinmoqda, ularning ko‘plari O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan. Davlat qo‘riqxonalari o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish uchun tashkil etilgan bo‘lib, ularda har qanday xo‘jalik faoliyati man etiladi. Qo‘riqxonalarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.[8].

Davlat qo‘riqxonalari qadimiy va eng qattiq tartibli muhofaza qilinadigan mintaqalarni namoyon etadi, ayrim o‘simliklar va hayvonlar turini yoki ekotizmlarni himoya qilish uchun tuzilgan. Ularni har qanday xo‘jalik faoliyati man etiladi. (Nazorat qilinadigan ilmiy tadqiqotlaridan tashqari). Ular tabiatni saqlash Xalqaro Ittifoqi tomonidan muhofaza qilinadigan mintaqalarni tavsifnomasiga binoan I toifaga kiradilar.

Qo‘riqxonalarning umumiy maydoni 2164 kv.km yoki muhofaza qilinadigan tabiatli hududlardan 10% umumiy tizimini tashkil etadi. Davlat qo‘riqxonalari maydoni asosan uncha katta emas (maksimum 814 kv.km). Ularning barchasi Chotqol, Hisor va Kitob geologiklardan tashqari, o‘rmon bo‘yicha Davlat qo‘mitasini qaramog‘ida turadi. [9].

O‘simlik va hayvonot Yerning hayot qobig‘i – biosferaning asosiy komponentlaridan bo‘lib, tabiiy resurslar orasida alohida o‘rinni egallaydi. Oqilona

foydalanilgan o‘simlik va hayvonlar tiklanadigan va cheksiz mahsulot beradigan manbaga aylanishi mumkin. Biosferadagi o‘ziga xos barqaror muvozanat ko‘p jihatdan o‘simlik va hayvonlarning biologik xilma-xilligining mavjudligi bilan bog‘liqdir.

“Ruhlar va jismlar olamining yaratganidan keyin Parvardigor uch farzand: ma’dan, o‘simlik va hayvonni yaratdi so‘ng nihoyasida olamni yaratdi”. O‘simliklar hayvonlar sayyoramizning genofondi hisoblanadi va har bir tur tabiatdagi o‘z o‘rniga ega. Biosferada moddalarning aylanma harakati faqat tirik organizmlar ishtirokida amalga oshadi. Bu jarayonni biosferada uchraydigan (SO₂) – ning aylanma harakati misolida ham ko‘rish mumkin. O‘simlik va hayvonlarning mahsulotisiz inson hayotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. [10].

Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Milliy strategiyaning Konvensiyadagi mazmuni uchta maqsadni ta’kidlaydi: bioxilma-xillikni saqlash, ulardan komponentlarini buzmaganda foydalanish va foydani adolatli va teng huquqli taqsimlash. Bu borada alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini kengaytirish va uni qayta tashkil etish, jamoatchilikning xabardorligi, ta’limni va bioxilma-xillikni buzmaganda foydalanish va uni saqlash ishlarida ishtirok etish, biologik resurslardan foydalanishda bioxilma-xillikni buzmaganda foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish ishlarini amalga oshirishda nazarda tutiladi.[11].

O‘zbekiston o‘zining barqaror rivojlanishi uchun biologik xilma-xillik resurslarining muhimligini tan olgan holda 1995 yilda biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyaga qo‘shildi. Hukumat hamda Konvensiya doirasidagi ustuvor majburiyatlarni bajarish uchun respublikada Birlashgan Millatlar tashkilotining Rivojlanish Dasturi va Global ekologiya jamg‘armasi tomonidan faol qo‘llab quvvatlangan “Bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha milliy strategiya va harakat rejasi”, loyixasini tayyorlashga kirishildi. Mazkur loyixa hukumatning ijrochi va agenti sifatida harakat qiluvchi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda amalga oshirildi.

Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiyaning maqsadi-mamlakat, biologik resurlarini boshqarishning yagona bosh yo'nalishi va rejalashtirish tuzilmasini shakllantirishni ta'minlashdan iboratdir. Shunday qilib mazkur sohadagi istiqbol faoliyati strategiyaga ko'rsatilgan va mustahkamlangan qoidaga muvofiq bo'lishi lozim. Strategiyaning yaartilishi milliy darajada rejalashtirish uchun aniq yo'nalish beradi. Shuningdek maqsadga qaratilgan va samarali dastur hamda loyihalarni ishlab chiqishni ta'minlaydigan mexanizmlardir. [12].

Hisor tog'larini tadqiq etgan barcha tadqiqotchilar bu yerdagi tog' daralarining o'ziga xos, noyob tabiat obyektlari ekanligini ta'kidlab o'tishgan, jumladan, 30- yillarda tadqiqot olib borgan taniqli geolog S.I.Klunnikov va P.P. Chuyenkolar daralarni shunday ta'riflaydilar: «Uzoqdan qaraganda yassi tepalar orasida yashirin chuqur daralar mavjudligi bilinmaydi. Ahyon-ahyonda ko'zga tashlanadigan daryo tirsaklarining ustki qismigina bir necha metrlik chuqurlikka o'yib kirgan daryoning daralari mavjudligini ko'rsatadi. Daryo tangilari tog' oralig'ida yoriqlar bo'ylab oqqangan o'xshab ko'rinadi». Ha, Hisorak va G'ilon qishloqlari oralig'ida Oqsuv daryosining kengligi 150-200 metr, chuqurligi 500-600 metr. Bunday noyob dara Shimoliy Amerikadagi Kolorado daryosidagi «Grand Kanyon» qo'riqxonasiga o'xshaydi.[13].

Yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvon turlarini asrab qolishda respublikamiz viloyatlarida tashkil etilgan qo'riqxonalar katta ahamiyatga egadir. Qo'riqxonalarda O'zbekiston gvordikasi, chilonjiyda, yovvoyi uzum, yovvoyi jiyda, sumbul, lola kabi o'simliklarning bir necha turlari, qoplon, ayiq, yovvoyi cho'chqa, bo'ri, ilvirs, Buxoro bug'usi, tog' echkilari kabi sutemizuvchi hayvonlar, qushlar va sudraluvchi hayvonlar feruza va parvona kapalaklarning bir necha turlari, toshqollar, oltin qo'ng'iz singari hasharotlar saqlab qolinmoqda. Shuningdek, tabiatda kam uchraydigan hayvonlarning kamyob turlari hayvonot bog'larida, yo'qolib borayotgan o'simliklar esa botanika bog'larida, oronjeriyalarda o'stirilib asrab qolingan. [14].

Hisor qo'riqxonasi joylashgan hudud juda murakkab tog' relyefiga ega. Hududning asosiy maydoni 2500-3000 metr balandlikdagi tog'lar doirasida

bo'lishi uning tuproq – o'simlik qoplami shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Tog' yon bag'irlarining shimoli-g'arb va g'arbdan ochiqligi, shimoli-sharq, sharqda va janubi-sharqda Zarafshon va Hisor tog' tizmalari bilan to'sib turilganligi ham tuproq - o'simlik qoplami shakllanishi va tarqalishiga muhim tabiiy omil sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Sanab o'tilgan omillar yig'indisi hamda, O'rta Osiyoda akademik Q.Zokirovning o'simlik va umuman landshaftlarning shakllanishi va tarqalishidagi geobotanik mezonlariga asoslanilsa, Hisor qo'riqxonasida ayni shu to'rta landshaft mintaqalarning uchtasi, ya'ni adir, tog' va yaylov mintaqalari yaqqol namoyon bo'lganligini kuzatamiz. Shu bilan birga bu mintaqalar ichida introzonal harakterdagi landshaftlar ham uchrashi tabiiydir. Tuproq, o'simlik mintaqalarining balandligi yon bag'irlarning ekspozitsiyasiga, tarqalish maydonining katta-kichikligi esa yonbag'irning relyef xususiyatlariga bog'liqdir [15].

. Eng qadimgi Milliy park AQSH da 1872 yilda tashkil etilgan Yyellouston parkidir. Bu yerda 900 ming gektar maydonda 3 mingdan oshiq geyzir va issiq buloqlar Yyellouston daryosining sharsharalari, bokira o'rmonlar bor. Shuningdek, AQSH da gigant sekvoyya daraxti qo'riqlanadigan Iosomet parki, Kanadada Vud-Buffalo, Zambiya (Afrika)dagi Kafu, Keniyada Kavvo, Tanzaniyada Serengeti Hindistonda Tirap, Yaponiyada Daysekudzan va boshqalar mashxur. Milliy parklar – Respublikamizda – Zomin xalq tabiiy parki tashkil etilgan. 1976 yil 3 sentabrda tashkil etilgan bu milliy tabiat parkining maydoni 45590 gektar Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'rida Zomin suv daryosi havzasida xushmanzara xilma-xil vertikal landshaftlar mintaqasida, dengiz satxidan va tipik landshaftlar bilan birga archa o'rmonlari, ekosistemalarning bir butunligini, bu hududda inson tomonidan kam, xatto mutlaqo o'zgartirilmagan tabiiy komplekslarning ko'pligi xalq milliy tabiat parkini tashkil etishga asos bo'ldi.[16].

Biologik xilma-xillik ham jahon hamjamiyati uchun, ham har bir davlat uchun muhim hayotiy manba hisoblanadi, u iqtisodiy faoliyatning va yashash uchun manba topishning asosida yotibdi, uni saqlash va samarali foydalanish esa barqaror rivojlanish uchun mutlaqo zarurdir.

Bioxilma-xillikning shunday, yovvoyi va xonaki yoki madaniylashgan biologik turlari tarkibi oziq-ovqatning va ko'pgina dori-darmonlarning, shuningdek sanoat mahsulotlarining almashtirib bo'lmaydigan yagona manbai hisoblanadi. Biologik xilma-xillik biosferani shakllantiradi, unda boshqa biologik turlar bilan birga inson ham istiqomat qiladi va yashovchanlik muvaffaqiyati uning holatiga bog'liq, o'tmishda insoniyati faoliyati tabiat jarayonlari miqyosiga taqqoslaganda unchalik keng emas edi. Hozir vaziyat boshqacha bo'lib so'ngi paytda yuz berayotgan iqlimiy o'zgarishlar, cho'llanish, yer degradatsiyasi va boshqa havflar bizning o'z kelajagimiz asosiga ham, milliy darajada ham, jahon miqyosida talofat yetkazayotganimizni ko'rsatmoqda. [17].

II BOB. HISOR QO‘RIQXONASI TERRITORIYASINING FIZIK-GEOGRAFIK O‘RNI.

2.1. Muhofaza qilinadigan hududlar va ularning tasnifi

Har bir qo‘riqlanadigan hudud, tabiiy kompleks bir-biri bilan o‘zaro aloqador, bir-biriga ta‘sir etuvchi va bir-birini taqoza etuvchi komponentlarning asrlar davomida shakllangan bir tuzilmasidan iborat. Har bir hududiy kompleks o‘z navbatida ayrim komponentlarning ma‘lum tabiat qonuniyatlari asosida vujudga kelgan va rivojlanayotgan majmuidan kompleksidan iborat. Shu bilan kompleks komponentlarning – (tuproq, relyef, o‘simlik, iqlim, hayvonot olami va hokazo) mexanik yig‘indisi, oddiy to‘plamidan iborat emas, balki muayyan qonuniyatlar asosida vujudga kelgan va rivojlanayotgan tabiiy hosiladir. Tabiiy komplekslarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning tabiiy tuzilma yoki sistema yoki kompleks landshaft kompleksi deb ataluvchi va shunday deb qarashga imkon beradigan bir butunligidir. Tarkibiy qismlar – komponentlar ham bir butundir. Tabiiy sistemaning yoki kompleksning komponentlaridan birortasiga ta‘sir etish, undan biror maqsadda foydalanish uning boshqa komponentiga, butun kompleksning o‘zgarishiga olib keladi. Tabiatga tabiiy komplekslarning bir butunligi qonuniy birligi deb qarash ularning bir butunligini tan olish, tabiatni bilishga sistemali – tizmiy yondashish tabiatni muhofaza qilish va o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tekshirishning metodologik negizidir. Insonning hayoti va faoliyati biron tabiiy kompleksi – landshaft sharoitida o‘tadi. Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta‘siri uning landshaftlarga ta‘siridir. Inson landshaftning bir yoki ikkita komponentiga ta‘sir etish bilan uning dinamik strukturasi, funksiyasini o‘zgartiradi va tabiiy muvozanatni buzadi va o‘zgartiradi. Masalan tog‘ yonbag‘irlarda va o‘rmonni kesish landshaft komplekslarining o‘zgarishiga olib keladi, tuproq eroziyasi kuchayadi, mahalliy iqlim o‘zgaradi, suv resurslari, o‘simlik kamayib ketadi, hayvon turlari yo‘qoladi. Tabiiy muhitni ifloslanishdan saqlash uchun hudud va suv havzalari akvatoriyalarning mahsuldorligini oshirish, transport qurilish ishlari natijasida buzilgan landshaft komplekslarini, yerlarni tiklash kerak. Lekin shu bilan birga fan, madaniyat,

sogʻliqni saqlash, shuningdek xoʻjalikning turli tarmoqlari oldida vujudga kelgan vazifalarni hal qilish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiatning diqqatga sazovor tabiiy komplekslarini muhofaza qilish lozim. Chunki, ular insonning tabiatga taʼsiri bilan bogʻliq holda tabiiy sifatini yoʻqotishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki tabiatga insonning taʼsiri boʻlmagan holda ham oʻzgaradi, bunda tabiat muvozanati buzilmaydi, tabiiy komplekslarning oʻz-oʻzini boshqarish va tiklash qobiliyati saqlanadi. Insonning faoliyati tabiatdan biror narsani olishga boʻlganligidan tabiat muvozanatida oʻzgarish salbiy tomonga boʻlishi mumkin. Tabiatning oʻzi uchun, inson uchun ham namatlub jarayonlar vujudga kelishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez berilib turiladigan togʻ koʻchkisi, qor koʻchkisi, togʻ qulashi, sel, daryo toshqinlari va boshqa inson faoliyatiga ziyonli taʼsir koʻrsatuvchi tabiiy ofatlar insonning tabiiy komplekslariga bilib-bilmay aralashuvi natijasida roʻy beradi. Ayniqsa foydali oʻsimlik, biror hayvon turining kamayib qolishda namoyon boʻladigan biologik komponentlar oʻzgarishi tabiat muvozanatini buzadi. Foydali oʻsimlik va ayrim hayvon turlarining kamayib ketishi, yoʻqolish arafasiga kelishi, ularni bu jonzotlar tarqalgan arellarda saqlab qolish, agar bu arealda butunlay yoʻqolib , qaysidir oʻxshash hududlarda hali saqlangan boʻlsa, bu jonzotlarning azaliy makoni boʻlgan joylarga olib kelib, ularni iqlimlashtirish tadbirlari, tabiatni bugungi va kelajak avlod manfaati uchun qoʻriqlashning yetakchi yoʻnalishda shu maqsadda tabiatni asrash uchun Qoʻriqxonalar tashkil etish, ayrim noyob oʻsimlik va hayvon turlarini, “Qizil kitob” ga kiritish ishlari tabiatni muhofaza qilish tizimida ustuvor yoʻnalishlar hisoblanadi.

Tabiatni qoʻriqlash va ularni avlodlar uchun asrash tuzilmasida qoʻriqlanadigan hududlar asosiy oʻrin tutadi. Tabiatni qoʻriqlash tizimida aniq hudud va aniq biologik turlarni saqlash va ular ustida ilmiy – tadqiqotlar olib borish Milliy bogʻlar yoki tabiat bogʻlari, rezervatlar, qoʻriqxonalar, buyurtmalar, tabiat yodgorliklari shakllarida amalga oshiriladi. Shu taxlit qoʻriqlanadigan hududiy obyektlarning tasniflanishi ularda olib borilishi mumkin boʻlgan tadqiqot

va kuzatish , shuningdek qo‘riqlash ishlarining hajmiga, harakteriga muassasa oldiga qo‘yilgan vazifaning ko‘lami va harakteriga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy park yoki tabiat parki-tabiatni qo‘riqlash muassasasi sifatida dastlabki tashkil etilgan va keng tarqalgan qo‘riqlanadigan hududlardandir. Milliy parklar birinchi marta 1872 yilda AQSH da tashkil etilgan. Lekin tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish xalqaro Ittifoqining Bosh Assambleyasi – TMQ ning Bosh Assambleyasi tomonidan 1969 yilda “Milliy park” xalqaro tushunchasining mazmunini va maqomi qabul qilindi. Demak, birinchi tashkil etilgan Milliy park bilan uning xalqaro maqomi qabul qilinganiga qadar salkam yuz yil o‘tgan. Bu davr mobaynida Milliy park tashkil etish g‘oyasi – tabiatning diqqatga sazovor bo‘laklarini Mangulikka saqlashga intilish tasavvuri sifati deyarli barcha davlatlarga tarqaldi, Milliy parklar tashkil etish jarayoni jadal tezlashgan. Bunday g‘oyaning tez suratlar bilan tarqalishiga sabab-butun dunyoda tabiatdan olinadigan tabiiy resurslar hajmining ortib borishi bo‘lib, muhofaza qilinadigan hududlarga qo‘riqlash nuqtai nazaridan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishi deb hisoblasa bo‘ladi. Chunki jamiyatning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy manfaatlarini qo‘riqlash muassasalari tashkil etishda deb bilgan strategik masala jahon jamoatchiligining ongiga chuqur singa boshlagan edi. Aslida Milliy parklar tabiatni muhofaza qilinadigan hududlarning rekreatsiya – shifobaxsh va bardamlashtiruvchi imkoniyatlari hamda ma‘rifiy jihatlaridan foydalanish maqsadini ko‘zlab Millik park tashkil etish g‘oyasi ayni davrda xilma xil maqsad va vazifalarni qamrab olgan. Shuning uchun 1969 yilda qabul qilingan Milliy park maqomi haqidagi xalqaro hujjat tabiatni qo‘riqlashga qaratilgan boshqa turdagi rezervat, qo‘riqxona va boshqalardan qanday vazifalar qo‘yilganligini farqlash uchun amalga oshirilgan edi. Hozirga qadar Milliy park maqsadi xususida birdam tushuncha yo‘qligiga qaramay muhofaza qilinadigan, ham ilmiy sport, ma‘muriy jihatdan tabiatdan foydalanish mumkin bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladigan ikki maqsadli muassasa deb belgilangan “Milliy park” nomli 1987 yilda Moskvaning “Misl” nashriyotida chop etilgan N.M.Zabelikaning kitobida yozilishicha, “Milliy parklar ekologiya bilan iqtisodiy manfaatlar yo‘nalishiga tenglik qo‘yishga

intilish” manfaatlarini ko‘zlaydi. Shundan kam – tabiatning noyob va diqqatga loyiq hududlaridagi ekosistemalarni bokira holatda – azaliy o‘zgarmagan holatda saqlash, aholini tabiat haqida ma’lumotlarga amaliy jihatdan bilimli qilish uchun ularga ko‘rsatish maqsadida Milliy parklar tashkil etiladigan alohida hududlardir. Biosferaning rang barangligi, yo‘qolish xavfi tug‘ilgan o‘simlik va hayvonlarning turlarining rivojlanishining bir maromda kechishini ta’minlash, noyob tabiatli maydonlarda biotik jamoalarning genetik resurslar hisoblangan hayvon va o‘simlik turlarining tabiiy evolyutsion taraqqiyotini saqlash maqsadida tashkil etiladi deb, milliy parklar vazifasi belgilangan ushbu kitobda. Ma’lumotlarga qaraganda jahonning yuzdan oshiq davlatida ikki mingdan oshiq milliy parklar tashkil etilgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda muhofaza qilinadigan muassasalarning ko‘pchiligi milliy parklar deb ataladi. “Milliy” so‘zi uchastkaning ayrim kishiga emas, balki davlatga qarashli ekanligini bildiradi. Milliy parklarda inson tomonidan kam o‘zlashtirilgan flora va faunaga boy bo‘lgan xushmanzara- diqqatga sazovor, ilmiy tarixiy, ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarda muhofaza qilinadi. Milliy parklarda tabiiy resurslardan sanoatda, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydi. Tabiatni muhofaza qilish aholining dam olishini tashkil qilish va ommaviy turizm bilan birga qo‘shib olib boriladi. Ayrim mamlakatlarda, masalan Skandinaviya mamlakatlar milliy parklar yopiq bo‘lib, MDX dagi qo‘riqxonalar rejimi amal qiladi. Ekosistemalarning 3 bandlik mintaqasi aniq namoyon bo‘lgan. Park hududida qo‘riqlanadigan zona, rekreatsiya uchun – ya’ni faqat turistik marshrut uchun chegaralangan zona intensiv rekreatsiya zonasi mavjud. Bu funksional zonalar tog‘ – o‘rmon region, tuproq, suvni saqlash, xo‘jalik va rekreatsion ahamiyatga ega bo‘lgan flora faunani saqlash uchun xizmat qiladi. Har yili Milliy parkni bir necha minglab o‘quvchilar, turistlar, sportsmenlar tomosha qilib ketmoqda. Bu jihatdan O‘zbekistonda bu Milliy park – Yevropadagi tabiatni saqlash va tabiatdan rekreatsiya maqsadlarida foydalanishga qaratilgan vazifalarni qoniqarli tarzda bajarmoqda. 2000 yilning noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Chotqol biosfera qo‘riqxonasi, burchmulla va oxangaron o‘rmon xo‘jaliklari hududida “Chotqol - ugom” tabiat milliy bog‘i

tashkil etildi. 668 ming 350 gektar maydondagi bu bog' Bo'stonliq, Ohangaron va Parkent tumanlari hududi doirasi 78 xil o'simlik, shu jumladan 12 xil lola "Qizil kitob" ga kiritilgan 21 ming tog' echkisi, 1000 to'ng'iz 7000 ming qizil sug'ur, 5 ming kun sug'ur, 1,5 ming tulki 600 dan oshiq bir juft qoplon, turkiston silovsini qo'riqlanadi. Chimyon-Chorvoqdan olish va rekreatsiya zonasi bo'lgan ma'lum bir pullik nazorat punktlari tashkil etilgan avtomashina uchun 300-700 so'm, bir kishi uchun 100 so'm, chet el fuqarolaridan 5, avtomashinasi uchun 10 dollar haq olinadi. Bu pul tabiatni qo'riqlash va dam oluvchilarga qulay sharoit yaratib berishga sarflanadi. Shuni aytish kerakki, Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish xalqaro Ittifoqi Milliy parklarni muhofaza qilinadigan hududlar sifatida uchta kategoriyaga bo'lib, Milliy parklar ikkinchi yo'nalishga loyiq deb ko'rsatiladi, chunki unda rekreatsiyasi zonasi mavjud bo'ladi. Qo'riqlanadigan hududlarning birinchi guruhiga tabiatni qo'riqlash qat'iy rejimiga ega bo'lgan ilmiy rezervatlar kiritilgan. Ilmiy rezervatning maqsadi Tabiatdan foydalanish mutlaqo man etilish bilan birga tabiiy jarayonlarning kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan har qanday choralar qo'llanishga yo'l qo'yilmaydi. Ilmiy rezervatda faqatgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga ruxsat etildi. Tabiiy Ilmiy rezervat-MDX qo'riqxonalar rejimiga bir qadar mos keladi. Odatda imliy rezervatlar maydon kichik, ko'pincha qo'riqxona va boshqa qo'riqlanadigan muassasalar tarkibiga kiradi. Ba'zi rezervatlar rejimi va vazifalari bo'yicha bizdagi zapavednik-buyurtmalarga o'xshab ketadi. Fransiyaning Rono daryosi deltasida Komarg rezervati qishlovchi suvda suzuvchi parrandalarni muhofaza qilish Hindistondagi rezervatlar ovchilik va ornitologiya maqsadlarida kuzatishlar olib boradi. Qo'riqxonalar- tabiatni asrash va qayta ishlab chiqarishning eng oliy turi va eng ko'p tarqalgan shaklidir. Quruqlik, suv havzasining karakterli tabiiy landshaftlari bo'lgan ma'lum chegaralangan maydonda tashkil etilgan qo'riqxonalarida, tabiat komplekslari ustidan ilmiy kuzatishlar olib boriladi. Qo'riqxonalarining asosiy vazifasi-tabiatning diqqatga sazovor, qimmatli kompleks yoki komponentlarini jamiyat manfaatlari uchun saqlashdan iborat. Qo'riqxona hududida xo'jalik faoliyat, tabiatdan foydalanish-

(pichan o‘rish, ov qilish, yer haydash, baliq ovlash, zamburug‘ terish) umuman ta’qiqlanadi. Qo‘riqxonalar atrofi kam foydalanib muhofaza qilinadigan Zona bo‘lishi kerak. Qo‘riqxonalarda mavjud komplekslar tabiiy holatda saqlanadi. Ular inson tomonidan o‘zlashtirilayotgan va o‘zgaruvchan qushni hududlar uchun etalon-andoza bo‘lib xizmat qiladi. Ammo dengiz va suv havzalarida ham muhofaza qilinadigan akvatoriyalar yetarli inson tomonidan dengiz va okeanlar boyliklari o‘zlashtirilishining tobora kuchayib borishi bilan bog‘liq holda atrof muhitning ifloslanishiga ekologik sistemalarning buzilishiga, ayrim hayvon va o‘simlik turlarining yo‘q bo‘lib ketishiga olib keluvchi antropogen ta’sirlar ham kengaymoqda. Shu sababli suv havzalarining biologik resurslarni ta’minlashni ko‘zda tutuvchi chora tadbirlar qatoriga akvatoriyalarda qo‘riqxonalar tashkil etish muhim hisoblanadi. AQSH da maydoni 250 gektar bo‘lsa birinchi suv Qo‘riqxonasi – Fort Jifferson qo‘riqxonasi 1935 yilda, Bagama orollarida umumiy uzunligi 35 km bo‘lgan Eskuma Kis parki 1959 yilda, Avstraliyada Grand Aylend suv havzasida park marjon qurilmalari uchun tashkil etilgan. Jahonda akvatoriyalarni qo‘riqlaydigan muassasalar soni 170 dan ortiq.

Inson xo‘jalik faoliyatining ta’siri natijasida hosil bo‘lgan lokal (mahalliy) va global (sayyoraviy) hodisalarni to‘g‘ri tushunish va baholash uchun bu jarayonlarni tadqiq etish talab etiladi. Atrof muhitning holatini kuzatish shakllaridan biri Xalqaro miqyosda biosfera qo‘riqxonalari asosida monitoring (nazoratlash) xizmatining global sistemalarini yaratishdir. Biosfera qo‘riqxonalari global umumiy holati (foni) va uning inson faoliyati ta’sirida o‘zgarishning yo‘nalishlari haqida axborot manbai bo‘lishi kerak. YUNESKO ning tashabbusi barpo etilayotgan qo‘riqxonalar tabiiy ekosistemalarda o‘simlik va hayvon organizmlarining har xil turlarini saqlash, ekologik monitoring bo‘yicha kompleks biogeotsenologik tekshirishlar olib borish, ekosistemalarga har xil tipdagi xo‘jaliklar (o‘rmon xo‘jaligi, yerlarni o‘zlashtirish va x.) ta’sirining xarakteri va darajasini aniqlash ko‘zda tutiladi. Biosfera qo‘riqxonasi tanlaganda landshaftlarning tipiklik va reprezentativlik (rivojlanishdagi o‘ziga xoslik) tamoyillarga amal qilinadi.

Zakazniklar – buyurtmalar – tabiatni muhofaza qilish tadbirlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. Zakazniklarda tabiiy geografik komplekslar, komponentlarning ayrim qismlari ayrim hayvon yoki o'simlik turlari muhofaza qilinib, unda qator tabiiy resurslardan xo'jalikda foydalanishga ruxsat beriladi. Qo'riqxonalaridan farqli ravishda zakazniklar maydonlar yer fondi va o'rmon fondidan ajratib olinmaydi. Zakazniklar eng ko'p tarqalgani ovchilik zakazniklari hisoblanadi. Ularda ma'lum muddatda fauna qo'riqlanadi, yog'och tayyorlash, qo'ziqorin va mevalar yig'ishga ruxsat beriladi. Zakazniklar doimiy va vaqtincha bo'ladi. Vaqtincha zakazniklar ko'pincha ovchilik xo'jaliklarida ov qilinadigan hayvon va qushlarning sonini tiklash va ko'paytirish maqsadida tashkil qilinadi. Qo'riqlanayotgan turlarning optimal soni tiklangandan keyin rejim bekor qilinadi va zakaznik yana ov qilinadigan joyga aylanadi. Doimiy zakazniklar o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish uchun tuziladi. Keyingi vaqtlarda botanik, zoologik, geologik, ixtiologik, ornitologik zakazniklar tashkil qilinmoqda. Respublika miqyosidagi zakaznik esa mahalliy hokimiyat kengashlari qarori bilan tashkil etiladi. O'zbekistonda umumiy maydoni 197 ming gektar bo'lgan 8 zakaznik bor bo'lib, ularda flora, fauna muhofaza qilinadi va tiklanadi. Buxoro viloyatda To'dako'l ko'l-cho'l davlat zakaznigi dengizko'l ko'l-cho'l davlat zakaznigi, Surxondaryoda Ko'xitang tog'-o'rmon davlat zakaznigi, Qoraqalpog'istonda Nurumtubek to'qay davlat zakaznigi, Amudaryo Qayir davlat zakaznigi, Shobboz to'qay davlat zakaznigi, Xorazm viloyatida Xorazm cho'l davlat zakaznigi, Toshkent viloyatida Oqbo'loq tog' davlat zakaznigi mavjud.

Tabiat yodgorliklari – tabiiy obyektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni qo'riqxonaga yoki zakaznikka aylantirish maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda, diqqatga sazovor obyektlar tabiiy yodgorliklari deb e'lon qilinadi. "Tabiat yodgorliklari" iborasini mazmun A. Gumbolt taklif etgan. Tabiatning o'tmishi va unda sodir bo'ladigan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beruvchi tabiat yodgorliklari ishning ikkinchi bobida ta'riflanish zarurligidan bu yerda faqat qo'riqlanadigan hududning turi sifatida qayd qilib o'tamiz.

2.2. Geografik o'рни ,chegaralari va maydoni

Hisor qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarining hududlarida joylashgan. Shuningdek, uning shimoliy va janubiy maydonlari Kitob va Qamashi rayonlariga qarashli yerlarni ishg'ol etadi. Maydoni 80986 gektar. Hududning kattaligi jihatidan respublika qo'riqxonalarining eng yirigidir. Sharqdan g'arbgacha bo'lgan uzunligi 37 km, shimoldan janubgacha esa 50 km masofani egallaydi.

O'zbekistonning janubiy mintaqasi Qashqadaryo va Surxondaryo havzalariga ajratib turgan Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'ri qirrasidan g'arbgacha tarmoqlangan tog'lar doirasi qo'riqxonaga hududini tashkil etadi. Demak, Hisor Qo'riqxonasi mamlakatimizdagi eng baland tog' tizmasida joylashgan va uning nomi bilan yuritilib, Kitob geologik va Surxon (Ko'hitang va Orol payg'ambar bo'limlaridan iborat) to'qay va tog' o'rmon qo'riqxonalari bilan birga O'zbekiston janubida qo'riqlanadigan landshaft obyektlari sirasiga kiradi. Qo'riqlanadigan muassasa shimoliy kenlikning 380 401 bilan 390 001 va sharqiy uzunlikning 67 0 301 bilan 670 351 oralag'idagi hududlarda tashkil etilgan ushbu qo'riqxonaga sarhadlari tog' qirralari, yonbag'irlari va vodiylar bo'ylab o'tadi. Shimoli-sharqda Tojikiston Respublikasining Panjikent rayoni hududi bilan qo'riqxonaga sarhadi tutashadi. Avvalo, chegara Qashqadaryo havzasi bilan Zarafshonning Magizndaryo havzasi suvayirg'ichi bo'lgan Hazratsulton tog'i, so'ngra Hisor tizmasi qirrasini bo'ylab chegara davom etadi. Hisor tizmasining doimiy muzlik va qor bilan qoplangan qoyalari-Qashqadaryoning ushbu qo'riqxonasini Surxondaryoning To'palangdaryo havzasi bilan birlashtirib turadi. Hisor tog' tizmasining doimiy qorli qirralari bo'lmish Xo'jaqorshivar (4300 m), Chorog'il (4129 m) Chaqchar va boshqa baland tog'lar Surxondaryoning Sangardakdaryo bilan qo'riqxonaning tabiiy sarhadlari hisoblanadi. Qo'riqxonaning janubiy chegarasi Takao'ynar, Toytalash tog'ining etaklari bo'ylab Qamashi o'rmon xo'jaligi maydonlari bilan tutashadi. Hisor tizmasi va uning tarmoqlari yosh tog'lar ekanligini tik yonbag'irli o'tkir qirrali qoyalar relyefiga ega bo'lishi ham ko'rsatib turibdi. Demak, Hisor qo'riqxonasidagi tog'lar alp burmalanishida shakllangan yoshroq tog'lardir. Shu

burmalanishga qadar uzoq geologik davrlarda bu hudud butun janubiy O‘zbekiston singari bir necha bor dengiz tagiga cho‘kkan, bir necha bor quruqlik bo‘lish bosqichini boshidan kechirgan.

Qashqadaryo geologik-qidiruv ekspeditsiyasi geologlarining ko‘p yillik tadqiqotlari natijasiga ko‘ra (bu muassasa idorasi Kitobda joylashgan) Hisorning Qashqadaryo hududidagi eng qadimgisi kembriy metamorfik jinslari hmsoblanadi. Chakmankuydi va Masqara tog‘larida shu yoshdagi jinslar metamorfik slanetslari majmuasi tarzida namoyon bo‘lgan qo‘riqxonaga hududiga shimoldan tutashgan Sumsar-SHertog‘ va Hazratsulton tog‘larining zaminini esa paleozoy erasining silur, devon davrlarida dengiz organizmlari qoldiqlaridan hosil bo‘lgan marmarlashgan ohaktoshlar tashkil etadi. Hozirgi Kitob geologik qo‘riqxonasi hududi silur-devon-karbon dengiz yotqiziqlari saqlanishi jihatdan jahonda noyob geologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Oqsuv daryosining Hisorak qishlog‘idan to Hazratsulton tog‘igacha bo‘lgan maydoni devon davriga mansub ohaktoshlardan tuzilgan, bu jins majmualari perm davrida Zarafshaon tog‘ tizmasi ko‘tarilishidan ta’sirlanib, zichlashgan, ba’zan marmarlashgan. Hozirgi Zarafshon tizmasi bilan Hisorni birlashtiruvchi Hazratsulton tog‘i bir darajada burmalangan, undan sharqdagi va janubdagi hududlarda yerning ichki qismlarida kuchli magmatik jarayonlar ro‘y bergan. Hozirgi Hisorning o‘zagi – Osmontarosh va Xo‘jaqorshivar intruziv majmualari xuddi shu voqealar hosilasidir. Granit, diorit, plagiogranit boshqa intruziv jinslar Tamtush, Suvtushar, G‘ilandaryo va boshqa joylardagi tog‘lar zaminini tashkil etadi, ularga tutashib ketgan Langardaryo, Qizildaryo, Turnabuloq daryolari boshlanadigan Toytalash, Xontaxti va Eshakmaydon tog‘lari qo‘riqxonaning janubi-g‘arb va g‘arbdagi chegaralaridir. Yakkabog‘ va Shaxrisabz tumanlaridagi baland va o‘rtacha balandliklardagi Beshnov, Osmontarosh, Suvtushar, Qoratog‘ kabi tog‘larning yonbag‘irlari qo‘riqxonaning g‘arbidagi shartli chegaralaridir. Ta’kidlash lozimki, insonning tabiatga ta’siri tobora kuchayib borayotgan hozirgi zamonda qo‘riqxonaning qishloqlarga tutash maskanlarida tabiiy jarayonga inson aralashish darajasi kuchayishi mumkin. Noyob landshaft, tog‘ o‘rmonlari, xilma-xil tabiiy obidalari ko‘p bo‘lgan

Yakkabog‘daryo (Qizildaryo), Tanxozdaryo, ayniqsa Qqsuvdaryo o‘rta oqimidagiga nisbatan kam o‘zgargan joylarni qo‘riqxonada tasarrufiga o‘tkazish kelajak avlod oldidagi qarzimizdir.

2.3. Geologik tuzilishi, relyefi, geologik yodgorliklari

Qashqadaryoning chap irmoqlari suv yig‘ish maydoni bo‘lgan Hisor tizma tog‘larining G‘arbiy tarmoqlari bo‘lgan Osmontarosh, Beshnov, Maskara, Chakmankuydi, Uloqo‘ynar, Eshakmaydon, Xontaxti, Toytalash kabi baland qoyalitog‘ massivlari geologiya va geografiya adabiyotlarida Yakkabog‘ tog‘lari degan umumiy nom bilan ma‘lum. Asosan, Hisor qo‘riqxonasi hududida joylashgan bu tog‘lar Hisor tog‘ tizmasi tarkibida Hisor-Oloy tog‘ tizimiga kiradi. Geologik o‘tmishning paleozoy erasi oxirida ro‘y bergan tog‘ burmalanish jarayonida shakllangan Hisor-Oloy, Turkiston va Zarafshon tizmalari Hisor-Oloy tizimiga kiruvchi ko‘xnaroq tog‘laridir. Ayni paytda Hisor-Oloyning sanab o‘tilgan strukturalari Hisor tizmasidan farqli ravishda geografik kenglik bo‘ylab yo‘nalgan tog‘lardir. Hisor tizmasi va kaynozoy erasining paleogen davrida alp tog‘ burmalanish jarayonida shakllangan. Shimoldagi qo‘shni Zarafshon va boshqa tizmalar ham alp tog‘ ko‘tarilishidagi o‘tkir kuchli va qirrali qoyalarning tog‘ zaminini granit, diorit, plagiogranit va boshqa intruziv jinslardan tarkib topganligi boisi ham shundadir. Suvtushar daryosidagi shu nomli sharsharasi-Sharrak ota aynan shu grantli qoyalar zaminiga ega.

Qo‘riqxonaning va butun Qashqadaryo viloyatining eng yuksak nuqtasi bo‘lgan G‘ova dengiz sathidan 4153 metr balandlikda bo‘lib, O‘zbekistonda oltinchi o‘rinda turadi. Hisor qo‘riqxonasining shimoli-sharqidagi bu cho‘qqi doimiy qor bilan qoplangan, mustahkam, yemirilishga chidamli granit qoyalar bo‘lgan Hisor tizmasi o‘zagida joylashgan. Balandligi bo‘yicha (4425m) qo‘riqxonada chegarasidan atigi ikki kilometr sharqda qad rostlagan.

2.4. Iqlimi.

Iqlim Xususiyatlari birinchi galda havo harakati va yog‘in miqdori hamda ularning yillik o‘zgarishi O‘rta Osiyo tog‘li sharoiti landshaft komponentlari

shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biridir. Qo'riqxonahududining iqlimi, relyefiga, dastavval joyning balandligi va tog'larning yo'nalishiga bevosita bog'liq ravishda shakllanadi. Ma'lumki, Hisor tog'lari butun O'rta Osiyo hududi bilan birga g'arbiy yo'nalishdagi havo massalari ta'sirida turadi. Atmosferaning 2-3 dan 12 km. balandlikkacha bo'lgan qatlamlarda harakat qiladigan g'arbiy havo oqimlari qo'riqxonahududiga bemalol kirib keladi, ammo ularning yo'nalishi va ta'siri yil fasllari davomida o'zgarib turadi. Qish oylarida, kuzning ikkinchi yarmi va bahorning birinchi yarmida Kaspiy dengizi janubidan harakat qiluvchi siklonlar kirib kelganda yog'inning ko'p yog'ishi, havo haroratining ko'tarilishi kuzatiladi, bu havo massalari arktikadan keluvchi sovuq havo oqimlari bilan uchrashganda qalin qor tushishi ro'y beradi. Havo ochiq va ayozli kunlar bo'lishi esa shimoli-sharqiy antitsiklonlar kirib kelishi bilan bog'liq, yoz oylaridagi quruq va issiq havo oqimlari O'rta Osiyo ustida past bosimli issiq havo massasini shakllantiradi, natijada g'arb va shimoli-g'arbdan nisbatan salqin va quruq havo oqimi keladigan markazga aylanadi.

Ta'riflangan sinoptik jarayonlar, asosan tekisliklar uchun xos bo'lib, tog'larda ob-havo jarayonlari relyefga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Atmosfera yog'inlarining miqdori tog'ning absolyut balandligi ortishi bilan ko'payib boradi. 1800-1900 metr balandlikda -460 mm (Toshqo'rg'on), 545 mm. Deyarli bir xil balandlikdagi ikki joyda yillik yog'in miqdorining 85 mm. ga farq qilishi Toshqo'rg'onning tog'lari bilan g'arbdan to'silgan yon bag'irda joylashganligi bilan izohlanadi. Qo'riqxonahududining baland tog'larda joylashganligi, buning ustiga g'arb tomon ochiqligi yillik yog'in miqdorining nisbatan ko'proq bo'lishiga sharoit yaratadi: 580-612 mm miqdoridagi yog'in butun qo'riqxonahududi uchun xosdir.

Havo bosimi balandlikka chiqqan sayin kamayib boradi. Ko'p yillik kuzatishlar ma'lumotiga qaraganda o'rtacha yillik bosim 795 mb (Qamashi)dan 735.9 mb gacha (Seversov muzligi) o'zgaradi. Balandlik oshgan sayin faqat bosim miqdorigina emas, balki bosimning yillik o'zgarishidagi farq ham kamayadi. Tog'oldi rayonlarida yuqori bosim noyabrda, eng past bosim aprelda kuzatilgan

holda qo'riqxonaga tog'larida ikki maksimum (aprel va oktabr) va ikki minimum (fevral va iyul) ro'y beradi, buning sababi shuki, yil fasllari almashinuvi kuchli havo oqimlari tarzida havo bosimining havo namligi, aniqrog'i ham absolyut namlik tekislikdan farqli ravishda yil davomida keskin o'zgarishlar uchramaydi. O'rtacha yillik nisbiy namlik ko'rsatkichi 2000 metr balandlikda 49 foizdan 3000 metrda 53 foizgacha ko'payadi. Maksimum birinchi balandlikda 80 foiz (aprel) minimum 29 (avgust), 3000 metr balandlikda 64 va 48 foizga teng bo'ladi. Absolyut namlikning maksimumi 7,9 va 7,3 mb (iyul-avgust), eng kam minimumi 2,4 va 2,0 mb ko'rsatkichlarga teng. Demak absolyut va nisbiy namlik o'zgarishi balandlikka ko'tarilgan sayin bir qadar kamayadi. Buning sababini baland tog'larda havo namligining, haroratining kam o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqligida va bulutli kunlarning ko'pligida deb tushunish lozim.

Yozda esa, tekislik ustida past bosimli o'lka shakllanganligidan shimoli-g'arbiy shamollar esadi. Mingchuqur meteostansiyasi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi o'rinda 3-4 m/sek tezlikda esuvchi janubi-g'arbiy shamollar turadi, ikkinchi o'rin 2-3 m/sek tezlikdagi shimoli-sharqiy shamollar hissasiga to'g'ri keladi. Ma'lumki, har bir rayonning mahalliy shamollari mavjud. Aksariyat mahalliy tog'-vodiy shamollari o'z yo'nalishini yil fasllari bo'yicha ham o'zgartirib turadi, ammo fasllar almashinuvi davrlarida mahalliy shamollar ham barqarorlashadi. Qo'riqxonaga hududida doimiy esuvchi shamollar yo'nalishi daraxtlar qiyofasi, yer usti relyefining alomatlariga qarab ham aniqlash mumkin. Qo'riqxonaga hududida doimiy esuvchi shamollar yo'nalishi daraxtlar daraxtlar qiyofasi, yer usti relyefining alomatlariga qarab ham aniqlash mumkin. Qo'riqxonaga hududida meteo iqlim xususiyatlarini bilish tabiiy jarayonlarning o'zgarish qonuniyatlarini tushunish, eng faol biokomponentlarining biofiziologik fe'l-atvorini aniqlashga yordam beradi.

2.5. Hisor davlat qo'riqxonasi o'simlik qoplami va balandlik mintaqalari.

Alohida xarakterdagi hududlar tuproq-o'simlik mintaqasi sifatida Osmontarosh tog'larining g'arbiy yonbag'rida, G'ilondaryoning quyi qismidagi alohida-alohida kichik maydonlarda tarqalgan.

Qo'riqxonada tashkil etilishining bosh sabablaridan biri ham tog' landshaft majmualarini asrash hamda, majmuani ilmiy asosida o'rganish bo'lganligi aniq. Tog' landshaft mintaqasida respublika hududida o'sadigan 4000 dan ortiq o'simlik turining qumli va sho'rhok cho'llargagina xos bo'lgan turlaridan boshqa ko'pchilik turlarini bu yerda ko'rish mumkin. Tog' mintaqasidagi o'rtacha balandlikdagi struktura maydonlarida qoramtir bo'z tuproqlar, tog' o'rmonida esa och tusli qo'ng'ir o'rmon tuproqlari bilan almashinadi. Tog'larning qiyalari qum gili slanets, qumto va ohaktoshli shamoliy yonbag'irlarida tuproq qoplami qalin, mexanik tarkibi mayin, ikki-uch yarusli tig'iz daraxtli qalin hosil bo'lgan. Toytalash, Chakmankuydi, Xo'jaaxchaburun, Uloqo'ynar tog'larining shimoliy yonbag'irlarini haqiqiy qalin tog' o'rmonlari desa bo'ladi. Darvoqe, qo'riqxonaning yuqori qismi, ya'ni Qizilsuv bo'limi archazorlarning qalin va ko'pligi bilan alohida ajralib turadi.

Tog'larning janubiy yonbag'irlardagi mavjud o'rmonlar ancha siyrak bo'lib, o'simlik turlariga unchalik boy emas, archazorlar shimoliy yonbag'irlarga nisbatan 100-200 metr balandlikda joylashgan, ya'ni balandlikka chekingan. Tuprog'i qora tusda yupqa, tarkibida shag'al ko'p, ba'zan mayin tuproq butunlay yo'q. Janubga qaragan tik yonbag'irlarda daraxt va butalar siyrak, yalang'och qiyalari asosiy maydonni egallagan bir paytda, qiyaligi 50-70 darajadagi tikroq yon bag'irlarda tuproq qoplami deyarli rivojlanmagan. Tog'ning shimoliy va shimoli-g'arbiy yonbag'irlarida, baland bo'yli, ancha qalin archazor o'rmonlar borligi odatiy holdir. Qo'riqxonaning shimoli hududlarida o'rmonlar faqat odam borish qiyin bo'lgan yonbag'irlardagina qalin saqlangan. Bu yerlarda buta, chala buta va o't qoplami anchagina tig'iz, tuproq qoplami qalin, o'tlar tarkibida qaytadan yovvoyilashgan yo'ng'ichka, qashqarbeda kabi o'simliklar bot-bot uchraydi. Ma'lumotlarga qaraganda, archazorlar qo'riqxonada hududining qariyb 30 ming gektarini, o'rmon bilan qoplangan archazorlar 10-12 ming gektar maydonni egallaydi, siyrak archazor va butazorlar ikki hissa ko'proq maydonni ishgo'ol etadi. Keltirilgan raqamlar archazorlar tog'li aholining (nafaqat tog'liklarning) qurilish va hunarmandchilik xom ashyosi hamda yoqilg'iga bo'lgan talabini qondirish

manbai bo'lib hizmat qilganligini ko'rsatadi. Archa O'rta Osiyo tog'larining asosiy o'rmon hosil qiluvchi daraxti hisoblanadi. Archa - sarvidoshlar oilasiga mansub ignabargli o'simlik. Respublikamiz tog' o'rmonlarida archaning 3 turi uchraydi. Qashqadaryo tog'larida zarafshon archasi (qora yoki qizil archa), dengiz sathidan 1000-2500 metr balandlikda, yarimsharsimon archa (saur archa) 2600-3200 metr balandlikda, turkiston archasi (o'rik archa) 3000 metr va undan yuqorida o'sadi. Archa turlari har xil balandliklardagi yonbag'irlarda ham joy tanlamay o'saveradi. O'rta Osiyo tog' o'simliklar olamida, archa daraxti yetakchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham archaning ajoyib xususiyatlari haqida ayrim fikrlarni bildirsak, foydadan holi bo'lmas deb o'ylaymiz.

Zarafshon yoki qora archa shoxlarining siyrakroq va kaltaroq bo'lishi, yong'oq mevalarining kichikroq bo'lishi bilan boshqa turlardan farq qiladi. Archa daraxti nihoyatda o'ziga xos o'simlik. U tog' sokinligini va tiniq tog' havosini yoqtiradi, izg'irin shamolli, shag'al toshli muhitda ham bemalol o'saveradi. Har qanday to'siqlarni yenga oladi. Juda sekin, bir yilda 10-12 sm o'sadi. Uning asosiy tanasi to'g'ri o'sib 10-15 metrga yetadi. Qo'riqxonada 30 metrli archalar ham borligi kuzatilgan. Archa ming yilgacha yashaydi. Odatda o'rmonlardagi boshqa daraxtlar shox-shabbalari bilan to'qnashsa, archalar esa baquvvat ildizlari bilan ham bir-biriga yaqinlashadi. Archazorlar tog' tuprog'ini yomg'irlar ta'sirida yuvilib ketishdan saqlaydi, tuproq eroziyasini oldini oladi. Tuproq tarkibidagi namni uzoq muddat saqlaydi. Archa tuproqni kuchli sel va jala ta'siridagi yemirilishlardan saqlaydi, tog'lardagi ko'chkilarni to'xtatib jarliklar paydo bo'lishining oldini oladi. Archa yog'ochi bolta ostida jaranglaydi, ammo har qanday arra uni yengil kesa olmaydi. Archa yog'ochi osonlikcha chirimaydi, degan gap yuradi xalq orasida, chunki yog'ochida, shox-shabbalarida efir moyi bor. Bundan tashqari tarkibida mum va qand moddasi mavjud, shuning uchun ham har qanday yog'ochxo'r hasharot unga yaqinlashmaydi. Xalqimiz yosh bolalarning beshiklari ichiga solinadigan qavsga tariq qipig'i o'rniga archa barglarini maydalab ishlatishadi, bunday beshiklarda chaqaloq juda yaxshi o'sib rivojlanadi. Archa hidiga har xil qurt-qumursqa, hasharotlar yaqinlashmaydi. Archa daraxti va

archazorlarning hosiyatini xalqimiz azaldan yaxshi biladi. Buyuk bobomiz Amir Temur ham archaning noyob xususiyatlarini yaxshi bilganlar. 1941 yilning 17-21 iyul kunlari Samarqanddagi Amir Temur va uning avlodlari qabrlari ochib ko‘rilganda buyuk sarkardaning tobuti qimmat baho metallardan emas, oddiy archa yog‘ochidan yasalganligi va juda yaxshi saqlanganligi ma‘lum bo‘ldi. Bu o‘simlikning O‘rta Osiyo tog‘lari uchun ahamiyati beqiyos. Daraxtning shox-shabbasida efir moyi to‘planadi. Archa yaprog‘ida 0,45 dan 0,75 foizgacha yog‘ bo‘lishi mumkin. Archaning atmosfera havosini zararli chang va mikroorganizmlardan tozalashdagi roli ayniqsa kattadir. Professor B.P. Toxin ma‘lumotlariga ko‘ra, bir gektar archa o‘rmoni bir kunda 30 kg gacha fitonsidlar deb ataluvchi bakteriya va zamburug‘larni qiradigan uchuvchan moddalar ajratishi mumkin. Shu miqdordagi fitonsid butun bir shaharning havosidagi kasallik tarqatuvchi mikroblarni kirishga yetadi. Shuning uchun ham archazorlarning havosi sanoat shaharlari havosidan 200 marta tozadir.

Xullas, archa foydali, xosiyatli daraxt, uning tabiatda va inson xo‘jalik faoliyatida hech bir daraxt bosolmaydigan o‘z o‘rni bor. Shuning uchun ham archani e‘zozlash, avaylash zarur.

Hisor qo‘riqxonasi tog‘ landshaftlari mintaqasida o‘rmonlar asosan zarafshon (qizil) archasi daraxtlaridan tashkil topgan. Archa turkiston zarangi, buxoro bodomi, elchison na‘matagi, uchqat, zarang kabi daraxt hamda butalar bilan aralash holda o‘sadi. Archazorlarda 600 ga yaqin o‘simlik turlari borligi aniqlangan.

Dengiz sathidan 2350-2400 metr balandlikdan boshlab o‘rmon tarkibida o‘zgarish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zarafshon archasi tup soni jihatidan kamayib saur archasining hissasi ortib boradi. Qirsimon tog‘ qiylarining yassi yerlarida tikonli buta va chala butalar ko‘proq uchraydi.

Dengiz sathidan 2700-2800 metr balandlikdagi tog‘lardan yaylov landshaft mintaqasi boshlanadi. Quyi qismida-tog‘ landshaft mintaqasi bilan chegaradosh pog‘onada yer bag‘irlab o‘sadigan zarafshon va saur archalarining butsimon shakllari bir yotib o‘sadi. Qoyalar orasida, yarimtoqlik maydonlarida buta va

chalabutalardan yostiqsimon tikanli buta, na'matak turlari, uchqat va pakana zarang, kobreziya yoki tuyaqorin, ermon, shuvoq, yayloq ko'kamaroni, tog' astragali, o'tlardan arxaro't, ayiqtovon, gulkarrak, olchin, ovcho'p, tangacho'p, tilovo't, tog'chalov, tulkidum, ayiqquloq, g'ozpanja kabi turlardan iborat qoplam hosil bo'lgan. Alp o'tloqlari landshafti tarzida namoyon bo'lgan bu balandlik mintaqasida qordan xoli maydonlarda g'oz yaproq, akantolimon, astragal, tilovo't, er bahosi, gulizardak kabi o't o'simliklarning bir necha turlari uchraydi.

Tuproq qoplami yaylov landshaft mintaqasida yuza bo'ylab izchil tarqalmagan. Qoya va toshloqlar orasidagi kichik-kichik maydonlardagina tosh siniqlari bilan aralash yuqqagina qoplamli tuproq hosil bo'lgan.

Dengiz sathidan 3300-3450 metrdan yuqorida yalang'och qoyalar, doimiy qorlar, morena marzalari harsang toshli mangu sovuq mintaqa joylashgan. Bu mintaqada o'simliklar qoplami deyarli hosil bo'lmagan, faqat ayrim hollardagina baland tog'i qizg'aldog'i, boychechak, tilovo't g'oz yaproq va yapaloq kobreziya butalari qor yoriqlari, qor endigina erigan joylarda uchrashi mumkin.

Qo'riqxonalar florasi O'rta Osiyo florasiga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ayni paytda faqat g'arbiy Hisor uchun taalluqli endem turlariga boyligi bilan ham xarakterlanadi. Ma'lumki, O'zbekiston hududiga tarqalgan 4000 dan ortiq turdagi yuqori o'simliklarning 9 foizi endem turlardir. Qo'riqxonalar hududida 81 ta oila, 384 turkum, 870 turga mansub o'simliklar uchraydi. O'zbekiston «Qizil kitobiga» kiritilgan 32ta tur o'simlik qo'riqxonalar hududida mavjud. Bularga zarashon parpisi, cho'ziq pupanak, bobrov astragali, yonbargchali astragal, komarov astragal, qashqadaryo astragali, boysun oksitropisi, buxoro g'ichmolasi, korolkov za'faroni, sumbil kovrak, regil qirqboshi, katron, sovrinjon, sallagul, sutlama, chinnigul, fisher shternbergiyasi, burmaqora, flomoides, yurineya, qarg'atirnoq, lolalar, piyozlar, shirachlar, karraklarning bir qancha turlari misol bo'ladi.

Qo'riqxonaning o'simliklar qoplamida old Osiyo florasiga xos bo'lgan turlar 402 ta bo'lib bular kelib chiqishiga ko'ra avtoxon turlardir. Hisor-Oloyga xos bo'lgan endem turlar soni 80 dan ortiq. Shunday ekan, ko'pgina floristik

o'lkalarning tutash hududini tashkil etgan janubiy O'zbekistonda Eron, Afg'oniston, Kichik Osiyo, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Sibir va boshqa joylar uchun xos bo'lgan o'simliklarning uchrashi ham tabiiy bir holdir. Qo'riqxonada qoqidoshlar (108), ra'nodoshlar (76), bug'doydoshlar (68), burchoqdoshlar (67), loladoshlar (53), karamguldoshlar (46), ziradoshlar (41), yalpizdoshlar (41), ayiqtovondoshlar (38), kabi oilalarga mansub o'simlik turlari ayniqsa ko'p tarqalgan. Burchoqdoshlar oilasining turlari ichida astragallar turkumi ko'pchilikni tashkil etadi. Qo'riqxonada 5 tur astragallar tarqalganki, ulardan 3 turi, butkov astragali, nozikpoya no'xatak astragali va komarov astragali faqat qo'riqxonada uchraydigan endem turlardir. Qoqidoshlar oilasining karrak turkumi vakillari nihoyatda keng tarqalgan. Ularning g'arbiy Hisor hududida 30 turi o'sishi aniqlangan bo'lib, oqboshtikan yoki soya karragi-qariqiz, nevskiy karragi, keng tangachali karrak va boshqa shu kabi 8 turi endem o'simliklardir. O'rta Osiyo tog' o'simliklari qoplamida yovvoyi piyoz turlarining ko'pligi ma'lum Qashqadaryo tog'larida mavjud 20 turdagi piyozning ikki turi, ya'ni doira piyoz yoki qirqbarg piyoz (G'ilondaryo havzasida) va novcha piyoz-anzur piyozi (Toshqo'rg'on atrofida) qo'riqxonada endemidir.

Qo'riqxonada uchraydigan ayrim endem tur o'simliklar faqat muayyan arellardagina tarqalganligini qayd etib o'tish lozim. Masalan, yalang'och urug'li tog' no'xati asosan Toshqo'rg'on atrofida o'sadi. Burchoqdoshlar oilasining oksitropis turkumiga kiruvchi paxmoqkosacha oksitropis ko'p yillik o'simlik bo'lib, oq momiq tusli, bo'yi 3-12 sm, juft bargli, guli siyoh rangli bu tur faqat Tanxozdaryoning yuqori oqimida uchraydi. Qisqa hududli arealda tarqalgan endem o'simliklar bilan birga, qo'riqxonada g'arbiy Hisor-Oloy uchun xos bo'lgan bo'yi 15-30 sm orasidagi, diametri 80 sm ga yetadigan, tikanli, sershox, tig'iz yostiqli hosil qiluvchi massagetov astragali O'rta Osiyo janubidagi barcha tog'larda kam uchraydigan dukkakli, kichik buta shaklidagi o'simlikdir. Bu tur O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qo'riqxonada florasi vakillari tarkibida shimoliy hududlar florasi vakillari juda kam. Chunki aksari

namsevar mu'tadil sharoitga moslashgan bunday flora janubning qo'rg'oqchil sharoitiga hamma vaqt ham moslashib ketavermagan.

Qo'riqxonada hududi o'simlik turlariga g'oyatda boy bo'lishiga qaramay, daraxtlarning turi ancha kam. Qashqadaryoning tog'li mintaqasida tabiiy holda o'sadigan daraxt turlari 20 ga yaqin, butalar turi esa 40 ga yetar-yetmas. Qadimiy dehqonchilik o'lkalaridan biri bo'lgan Qashqadaryo havzasida o'rmonlarning turli maqsadlar uchun kesilishi, kontinental, tog' iqlimi daraxtchil florada yangi turlar paydo bo'lishi uchun noqulay bo'lgan, chamasi.

Qo'riqxonada archadan tashqari serberg zarang yoki shumtolberg zarang, turkiston zarangi va semenov zarangi, so'g'd teragi, jiyda, kumushrang jiyda, do'lana, regel noki, uchqat (shilvi) kabi daraxtlar o'sadi. Tog'olcha, na'matak, bodom, qora va qizil zirk, yulg'un kabi butalar deyarli hamma joyda uchraydi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, sanab o'tilgan daraxt va butalar tog' dashtining quruqlik iqlimiga moslashgan tikanli kserofil o'simliklardir. Kam bo'lsada uchraydigan yovvoyi nok, pista, issiq va sernamroq subtropik o'lkalar florasi o'simliklari hisoblanadi. Bu turlar janubiy o'lkalar bilan qo'riqxonada hududining floristik tarqqiyotida aloqa bo'lganligini ko'rsatadi.

Qo'riqxonada florasining muhim xususiyatlaridan biri tabiiy, inson ta'siri bo'lmagan o'simliklar assotsiatsiyalarining ham ma'lum darajada ikkilamchi o'simlik jamoalarining ham bir xilda ko'p tarqalganligidir. Qo'riqxonada sigirquyruq, kiyik o't, tog' rayhon, tog' jambil, zira, gulxayri, shashir, shirach, marmarak, mavrak, kisrak, anzur, kovrak, chukri, yoki ravoch, lola, yersovun, tog' yalpiz, yetmak va boshqa o'simliklar bir necha turda uchrashi ularning hayotchan ekanligini ko'rsatadi. Shirachdoshlar oilasiga mansub qalami shirachi, elchison shirachi, ol'ga shirachi, regel shirachi, momik shirach kabi olti turi, loladoshlarning turkiston lolasi yoki oq lola, greyg lolasi yoki qizil lola, korolkov lolasi, foster lolasi, kaufman lolasi, chipor lola, butkov lolasi kabi turlari, ziradoshlardan kovrakning to'rt turi, yalpizdoshlardan kiyik o'tining ikki turi (nafis kiyik o't, gulbandli kiyik o't) va boshqa shu kabi o'simliklar juda ko'p. Bu o'simliklarning aksariyati manzarali-ziynatli, oshlovchi modda beruvchi, efir

moyli, dorivor, asal beruvchi, hashakbop va boshqa amaliy ahamiyatga molik flora hisoblanadi.

Ikkilamchi o'simlik jamoalarini YE.P.Korovin tog' o'simliklarning shiblyak tipi deb ataydi. Ko'pchilik botaniklar shiblyak tipiga kiruvchi o'simliklar formatsiyasi kesilgan, nobud qilingan tog'-o'rmonlari o'rnida hisob bo'lgan deb hisoblaydi. Bu yerda na'matakning kichik na'matak, samarqand na'matagi, qo'qon na'matagi, itburun va boshqa bir necha turi, chair yoki shair, tobulg'i, bodomcha, uchqat yoki shilvi, totum yoki sumax, tikonli butalar bilan efemer va efemeroid o'tchil o'simliklar formatsiyasi shakllangan. Shuningdek, dalachoy, tog' sabzi, bo'yimadoron kabi janubiy O'zbekistonning endem o'simliklari ham qo'riqxonaning florasida muhim o'rin tutadi.

Qo'riqxonaning o'simlik-tuproq qoplami hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagan, hali ta'rilanmagan endem va mahalliy turlar topilishi ehtimoldan xoli emas. Keyingi tadqiqot ishlari natijasida kampirchoponlar oilasiga – kiruvchi mihrigiyoh o'simligining ikki turi borligi aniqlandi: ular qo'shgul mehrigiyoh va tungiyoh.

Qo'riqxonada tarqalgan endem tur o'simliklarining deyarli barchasi «Qizil kitob» ga qiritilgan, ammo juda noyob, qimmatli giyohlarning tarqalishi va genofondini aniqlab ularning kartasini tuzish, bioekologik xususiyatlari borasidagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish lozim.

III. BOB. HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASIDAGI O‘ZBEKISTON «QIZIL KITABI»GA KIRITILGAN O‘SIMLIKLAR

3.1. Noyob va yo‘qolish arafasidagi dorivor o‘simliklar.

Hisor qo‘riqxonasi hududida asosan 870 turdagi o‘simlik o‘sadi. Shundan 32 turi O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat. Qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklarni o‘zbekcha, ro‘scha va lotincha nomlari

№		O‘zbek		Rus		Lotin	
1		2		3		4	
1.	Bo‘tkov	astragali	Astragal	Butkova	Astragalus	Bobrovii	B.Fetch
2.	Kamarov	astragali	Astragal	Kamarova	Astragalus	komarovii	Lipsky
3.	Oq	parpi	Akonit	Talayevskiy	Alanitum	talassicum	M.Pop
4.	Mayda	gulli	oksitropik	Ostrolodochnik	melkotsvetniy	Oxytropic	Gontsch
5.	Buxoro	tangao‘ti	Kopeyechnik	Buxarskiy	Hedysarum	bucharicum	
6.	Sumbul	kovrak	Ferula	muskatnaya	Ferula	sumbul	
7.	Vvedenskiy	patbargi	Vvedenskaya	peristolistnaya	Vuslenskia	pinnatiloila	
8.	Regel	qirqboshi	Zarafshaniya	Regelya	Zeravschenia	rejttiena	
9.	Olga	sohta	klausiyasi	Lojnoklausiya	Olgi	Pseudoclansia	oljae
10.	Dilband	lola	Tyulpan	Mixeli	Tulipa	micholiana	
11.	Ulug‘	lola	Tyulpan	Velikiy	Tulipa	injens	
12.	Kesselring	sarvinjoni	Bezvremennik	kesselringa	Colchicum	keseeringii	
13.	O‘zbekiston	chinniguli	Gvozdika	Uzbekistanskaya	Dianthus	Uzbekistanicus	
14.	Nor	shirach	Shirach	moshniy	Eremurus	robustus	
15.	Suvorov	shirach	Shirach	Suvorova	Eremurus	suvorovii	
16.	Allolepis	karraki	Kuziniya	inakochohuynaya	Causinia	adenophora	
17.	Egritikon	karrak	Kuziniya	sognutokolyuchkovaya	Causinia	campyloraphic	
18.	G‘ujtuk	karrak	Kuziniya	prevosxodnaya	Causinia	pralstans	
19.	Dag‘albag	yurineya	Molovatka	sheroxovatolistnaya	Zuinea	asperifolia	
20.	Tuksiz	qarg‘atirnoq	Koyelpiniya	goloplodnaya	Kolepinia	leiaarpa	
21.	Yovvoyi	uzum	Vinograd	vinniy	Veius	viniferah	

22. Yirik no'xot Nut bolshoy Cicer grandt Korotkova
23. Echison shirachi Shirach Echisona Eremuruc aitchisonii Baker
24. Antika yuno Yunona velikolipnaya Juno magnifica
25. Fisher shternbergiyasi Shternbergiya Fishera Sternbergia fischeriana
26. Hisor badani Badan gissarskiy Bergenia hissarica Boriss
27. Tillarang sug'uro't Goritsvet zolotistiy Adonanthe chrysocyatha
28. Vvedenskiy karragi Kuziniya Vvedenskogo Cousinia vvedenskiyi Tscherneva
29. Yovvoyi sallagul Pion stepnoy Paeonia hybrida Pall
30. Ajoyib bo'zbosh Zmeyegolovnik prekrasniy Dracocephalum formocum Gontsch

Changisitukli lola (Sarg'ish lola) Tulipa dasystemon (Regel) Regel

Uncha katta bo'lmagan, baland tog' lolasi. G'arbiy Tyanshan va Pomir-Oloyning uzilgan arealli endemigi. O'zbekiston Qizil kitobiga 2 toifada kiritilgan.

Tashqi ko'rinishi. Bo'yi 10-20 sm bo'lgan ko'p yillik piyozli o'simlik. Piyoz mayda, diametri 1,5 sm gacha, qora-qo'ng'ir qog'ozsimon qatma-qat po'stloqli, ichidan uchida uncha ko'p bo'lmagan yotiq tukli. Bargi 2-3ta, keng nishtarli, chekkasi kuchsiz to'lqinsimon, gulidan yotiqroq. Guli yakka, katta emas, sariq yoki bo'yi 3 sm gacha bo'lgan sariq markazli oq. May-iyunda gullaydi.

Tarqalishi. O'zbekistonda Piskom, Ugom, Chotqol, Qurama, Turkiston, Hisor tizmalarida uchraydi. Hisor va Zomin qo'riqxonalarida, Zomin va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'larida muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Dengiz satxidan 2500-3000 metr baland tog'lar yuqori mintaqasining toshli va shag'alli yon bag'irlarida o'sadi.

Soni. Alohida o'simlik yoki kichik to'p holida uchraydi.



Tulipa dasystemon (Regel) Regel

Ulug‘vor lola *Tulipa ingens* T.M. Hoog

Yovvoyi lolalarning eng chiroyli turlaridan biri. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2-toifada kiritilgan.

Tashqi ko‘rinishi. Bo‘yi 15-40 sm bo‘lgan ko‘p yillik piyozli o‘simlik. Piyoz diametri 2,5-4 sm, qo‘ng‘ir terisimon qobiqli. Bargi 3-4ta, nishtarli, ba’zida chekkalari kuchsiz to‘lqinsimon. Guli yakka, yirik, nurli yulduz shaklida, qora markazli to‘q qizil. Changchi iplari qora. Changdonlari qora yoki to‘q qizil. Aprel-may oylarida gullaydi.

Tarqalishi. Gʻarbiy Pomir Oloyning endemigi. Zarafshon, Hisor va Koʻhitang tizmalarida uchraydi. Kitob va Surxon davlat qoʻriqxonalarda muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Dengiz sathidan 1600-2000 metr balandlikda, togʻlarning oʻrta mintaqasining soz tuproqli yon bagʻirlarida oʻsadi.

Soni. Yakka oʻsimlik yoki uncha katta boʻlmagan toʻp boʻlib uchraydi.



Korolkov lolasi *Tulipa korolkowii* Regel

Uncha katta boʻlmagan, lekin juda yorqin, manzarali yovvoyi lola. Janubi Gʻarbiy Tyanshan va Pomir-Oloyning uzilgan arealli endemigi. Tabiiy kamyob tur. Oʻzbekiston Qizil kitobiga 2toifada kiritilgan.

Tashqi ko‘rinishi. Bo‘yi 15-20 sm bo‘lgan ko‘p yillik piyozli o‘simlik. Piyozni mayda, diametri 2-2,5 sm, pishiq, terisimon, qora-qo‘ng‘ir kobiqi, ichki tomoni uchida tukli-junli. Barglari 3 ta, jingalak. Guli yakka, yirik, nafis qadah shaklida, to‘q qizil. Gulining markazida kichik qora dog‘i bor. Changchi iplari qora yoki quyi qismida qora, yuqori qismda qizil, changdonlari sariq. Mart-aprel oylarida gullaydi.

Tarqalishi. O‘zbekiston hududida Nurota, Qo‘ytosh, Pistalitog‘, Qurama, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Boysuntog‘ va Ko‘hitang tizmalarida uchraydi. Nurota, Surxon va Hisor qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Tog‘ etaklarining quyi va o‘rta mintaqasining quruq shag‘alli va toshli yon bag‘irlarida o‘sadi.

Soni. Butun areali bo‘ylab orasira, onda-sonda, yagona namunasi yoki soni bir nechtadan bir necha o‘n, ba‘zan 100-200 gacha to‘p-to‘p bo‘lib uchraydi.



Sertuk lolasi, Surxon lolasi Tulipa lanata Regel

Areali va soni o‘simlikni ko‘plab terish va chorva mollarini xaddan tashqari o‘tlatilishi natijasida qisqargan, yirik, juda ham manzarali lola. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2-toifada kiritilgan.

Tashqi ko‘rinishi. Bo‘yi 20-40 sm bo‘lgan ko‘p yillik piyozli o‘simlik. Piyozining diametri 2,5-4 sm, ingichka, jigarrang qatma-qat po‘stloqli, ichki tomonidan uzun to‘g‘ri tukli. Poyasi tukli, och-yashil, to‘g‘ri. Barglari 3-4ta, tukli, chekkalari egri-bugri, och-yashil, gullash boshida gulidan yirikroq. Pasti bargi keng nishtarli. Guli yakka, to‘q qizil, bo‘yi 5-8 sm. Gulining markazida och-sariq xoshiyali qora yoki to‘q qizil dog‘i bor.

Tarqalishi. O‘zbekistonda Hisor tizmasi, Bobotog‘ va Ko‘hitangda uchraydi. Surxon va Hisor qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Ochiq ola jinslar chiqqan joylarda, soz tuproqli va toshli yon bag‘irlarda, butazorlar orasida, tog‘larning quyi mintaqasida o‘sadi.

Soni. Onda-sonda, yakka yoki kichik to‘p bo‘lib uchraydi. □



Tulipa lanata Regel

Mixel lolasi, dilband lola *Tulipa micheliana* T.M. Hoog

Tekislik va tog' oldi zonasini qishloq xo'jalik maqsadlari uchun o'zlashtirilishi, chorva mollarini meyoridan ortiq o'tlatilishi va o'simliklarning terilishi natijasida areali va soni qisqargan tabiiy kamyob tur. O'zbekiston Qizil kitobiga 2 toifada kiritilgan.

Tashqi ko'rinishi. Uncha katta bo'lmagan, bo'yi 10-30 sm bo'lgan piyozli o'simlik. Piyoz tuxumsimon, qoraqo'ng'ir charmsimon qobig'ining ichki tomoni yotiq tuklar bilan qoplangan. Barglari ko'kimtir, bo'ylama binafsha rangli tilimlari bilan, chetlari to'lqinsimon, soni 3-4ta. Guli yakka, yirik, diametri 10 sm gacha bo'lib, to'qqizil yoki malina rangli, o'ziga xos qadahsimon shaklda. Gulining markazi sariq, gardishi qora. Changchi iplari qora, changdonlari binafsha rangli, gohida sariq. Mart-aprel oylarida gullaydi.

Tarqalishi. G'arbiy Pomir-Oloy va Kopetdog'da o'sadi. O'zbekistonda Nurota, Ko'hitang, Zarafshon tizmalarida va Hisor tog'i etaklarida (Dehqonobod atrofida) uchraydi. Nurota va Surxon qo'riqxonalarida hududlarida muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Tog' oldi teksligi, tog' etaklari va tog'lar quyi mintaqasining toshli va soztuproqli yon bag'irlarida o'sadi.

Soni. Onda-sonda, bitta-yarimta yoki katta bo'lmagan to'p-to'p bo'lib uchraydi. 1 ga maydonda bir necha donadan 100-200 tagacha o'simlik uchraydi.



Nor shirach, xulka bola *Eremurus robustus* Regel


Oʻrta Osiyoning areali uzilgan endemigi. Juda chiroyli manzarali oʻsimlik, koʻplab mamlakatlarning botanika bogʻlarida oʻstiriladi. Gullarining ommaviy terib olinishi sababli tabiatda kam uchraydi. Oʻzbekiston Qizil kitobiga 3-toifada kiritilgan.

Tashqi koʻrinishi. Kalta ildizpoyali va urchuqsimon-qalinlashgan ildizli, yirik, koʻp yillik, boʻyi 100-250 sm oʻtsimon oʻsimlik. Barglari keng uzunchoq, silliq, kengligi 4-8 sm. Shingili tigʻiz, koʻp gulli, silindr shaklda, uzunligi 35-120 sm. Gulqoʻrgʻon bargchalari och pushti rangli, yakka tomirli. Mevasi-kengligi 1,5-2,5 sm li silliq sharsimon koʻsakka oʻxshaydi. May-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgustda mevasi yetiladi. Ildizlari yoʻgʻonroq boʻlganligi uchun oʻsimlik oziq moddalarni toʻplash xususiyatiga ega va bu qurgʻoqchil yoz davri issiqlari va qish sovuqlariga chidamliligini hamda qisqa bahor davrida baquvvat yer usti qismining rivojlanishni taʼminlaydi..

Tarqalishi. Tyanshan va PomirOloyning barcha tizmalarida uchraydi. Surxon, Chotqol, Kitob, Hisor, Nurota davlat qoʻriqxonalar va UgomChotqol milliy bogʻi hududida muhofaza qilinadi.

Yashash joylari. Togʻlaring oʻrta mintaqasida, ochiq mayda jins tuproqli va toshli yon bagʻirlarida oʻsadi.

Soni. Bitta-yarimta va uncha katta boʻlmagan toʻp boʻlib uchraydi, turar joylardan uzoq va yetib borish qiyin boʻlgan yerlarda kattaroq populyatsiyalar hosil qiladi.



Noyob va yo‘qolish arkafasidagi dorivor o‘simliklar yaxshi o‘rganilmagan turlari aniq kartalashtirilmagan. Quyi o‘simliklar moxlar va zamburug‘lar o‘rganilmagan. Qo‘riqxonada endem o‘simliklari G‘arbiy Oloy va Pomirda ayrim turlari uchraydi, ularni muhofaza qilish maqsadga muvofiqdir.

Kiyik o‘ti.Kiyik o‘ti ham asosan Hisor tog‘larida to‘p-to‘p bo‘lib o‘sadi. Ushbu o‘simlik ham O‘zbekiston qizil qitobiga kiritilgan. Kiyik o‘tini ustida ilmiy ish olib borilganda Hisor davlat Qo‘riqxonasida Miraki va G‘ilon bo‘limlarida uchragan. O‘simlik ko‘p yillik o‘t o‘simlik bo‘lib bo‘yi 40-80 sm ga yetadi. Ildiz poyasi yo‘g‘on va yog‘ochlangan. Ildiz oldi va poyaning pastki kismlarida barglar ko‘proq. Mevasi avgust oylarining boshlarida to‘la holda yetiladi. Kiyik o‘ti meditsinada dorivor o‘simlik sifatida ishlatiladi.

Dalachoy.Dalachoy turlari ham O‘zbekiston “Qizil kitob” ga kiritilgan bo‘lib u O‘zbekiston Respublikasining deyarli hamma joylarida uchraydi. Bu o‘simliklarni Hisor Davlat qo‘riqxonasini Miraki hamda G‘ilon bo‘limlarida tarqalgan bo‘lib tog‘larning yon bag‘irlaridan boshlab, o‘rta qismlargacha bo‘lgan joylarda, tosh, tuproqli yerlarda o‘sadi Dalachoy turlari ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib 30-35 ba‘zan 100 sm ga yetadigan o‘t o‘simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta tik o‘suvchi silliq taksiz ikki qirralidir. Yuqori qismi shonalagan bargi keng yoki cho‘ziq tuxumsimon takis qirrali bo‘lib poyada bandsiz qarama-qarshi joylashgandir. Gullari tillarning ruvakka yoki shingilgan to‘plangan. Mevasi 3 xonali kusakcha bo‘lib iyun-avgust oylarida gullaydi. Iyul-sentabrda yetiladi. Dalachoy ham meditsinada dorivor o‘simlik sifatida ishlatiladi.

Zira. Zira 1 yillik bo‘yi 36-60 sm ga yetadigan o‘t o‘simlik . Poyasi tik o‘sovchi ko‘p qirrali asosi qismidan boshlab shoxlangan bargi ikki bir necha marotaba ajralgan bulib, poyada ketma-ket o‘rnashgan. Mevasi avgust oyida to‘liq pishadi. Mevasi yer ustiga tushganda qolgan qismi o‘rib olinadi, so‘ngra quritilib yanchib olinadi. Ushbu o‘simlik Hisor qo‘riqxonasida, Miraki bo‘limidagi tog‘larning chakkalik qismlarida ko‘p uchraydi. Zirani ham dorivor o‘simlik sifatida ishlatiladi.

Bo‘ta ko‘z. Bo‘ta ko‘z asosan Hisor tizmalarida o‘sadi. Hisor davlat qo‘riqxoansining G‘ilon, Miraki bo‘limlarida ko‘proq uchraydi. U asosan tog‘ yon bag‘irlarida o‘sib mevais Avgust oylarida pishadi. O‘simlik gullagunga qadar qurib qoladi. Uning bo‘yi 40-80 sm ga yetadigan o‘t o‘simlik sifatida ishlatish mumkin.

Chukri. Bu ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib O‘zbekistonning tog‘li yerlarida uchraydi. Mahalliy xalq uni endigina chiqqan vaqtda yaproqlarini yig‘ib, iste‘mol qiladilar yaproq bandi organik kislota va vitaminlarga boy. Shuning uchun uni ezib shirasini shimadilar, ildizini kovlab olib undan terini oshlashda ishlatiladi.

Kovrak. Respublikamizda adir tog‘ etaklarida o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib vegetatsiya o‘suv davri bir marta gullab urug‘laydi va shu yili qurib tugaydi. O‘simlikning yer ustki qismida 19,6% gacha efir yog‘i, kamede, simolalari to‘plangan. Bunlan tashqari uning ildizi meditsinada katta ahamiyaga ega.

Daraxt va buta o‘simliklar.Daryo vodiylarda pista, bodom, na‘matak, archa va boshqa ko‘pgnina daraxt, buta o‘simliklar o‘sadi.

Archa. Bu daraxt tog'larda ko'p uchraydi. Ular bir necha turga mansub. Morfologik belgilari bilan bir-biridan farq qiladi.

Daraxtni shox shabbasida efir yog'i to'planadi. Yog'ining maksimal to'plangan vaqt kech kuzda to'g'ri keladi. Yaproq'ida yog' 0,45 % dan 0,75 % gacha saqlanadi. Archaning yarim shar ko'rinishga ega bo'lgan turida yog' miqdori ko'p. 0,64% dan 0,6 % gacha bor. Efir yog'i sanoat uchun ko'plab kerak bo'ladigan xom ashyodir.

Qo'riqxonada hududida archaning 3 xil turi uchraydi.

Turkiston Archasi

Zarafshon archasi

Sovir archasi

Hisor qo'riqxonasida archaning umumiy maydoni 30 ming ga teng. Qo'riqxonada archaning sun'iy ko'paytirish sohasida ham ilmiy ishlar qilinmoqda. U donidan, urug'idan ko'paytirilmoqda. Uch yillik bu archaning 10-15 sm bo'lgani, qadimgi so'g'd tilida archani "Bo'sa" deb atashgan. Bo'sa so'zi minormant degan ma'noni bildiradi. Archa tabiatning so'lim farzandi bo'lib umr bo'yi daraxtlar o'z tanalarida tabiatdagi o'zgarishlarni magnit tasma-siga yozganidek archaning kesish tanasiga qarasangiz unda turli ko'rinishdagi behisob doiraviy chiziqlarni ko'rasiz. Doiraviy chiziqlar tabiatdagi mavsumlar seryog'in sovuq yoki issiq bo'lganini bildiradi. Bu ma'lumotlarni mutaxassislar o'qib berishadi. Archalar xattoki samoviy jismlarning bir- biri bilan to'qnashib ketgani ham o'ziga qayd qiladi. Masalan: Olim YE.Maksimov 3500 metr balandlikda o'sgan 810 yoshli qurigan archa tanasini tadqiq etib hayratlanarli voqeani aniqlaydi. Bu daraxt tanasining chiziqlardagi 3 ta o'ta yangi yulduzlardagi ulkan portlashlar qayd etilgan. 1577 yilda

bo'lgan Texo Brogi 1604 yildagi Kepler va 1700 yildagi Kesel Otdel yulduzlarida bo'lgan portlashlar tanasiga o'z ta'sirini qoldirgan.

Na'matak. Na'matak boshqa o'simliklarga o'xshab Hisor Davlat qo'riqxonasida ham o'sadi. Na'matak daryolarning bo'ylarida, tog'larning quruq toshloq yon bag'irlarida hamda tog'larning o'rta va yuqoridagi suv bo'ylarida yoki archazor va yong'oqzorlarda o'sadi. Na'matak turlari bo'yi 2 metrgacha va undan baland bo'lgan tikanli butali novdasi egiluvchan yaltiroq qizil qo'ng'ir yoki qizil jigarrang tusli po'stloq bilan qoplangan bargi tok patli murakkab. Poyada band bilan ketma-ket joylashgan. 5-7 ta tuxumsimon arrasimon qirrali may oyidan boshlab avgustgacha gullaydi. Mevasi oktabr oyida pishadi. Na'matak turini mevasi avgust oyining oxirida /qizil rangga kirganda yig'ib olinadi.

IV. BOB. HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASINING HAYVONOT OLAMI

4.1. Hisor davlat qo‘riqxonasining o‘zbekiston «qizil kitobi»ga kiritilgan hayvonlari

Hisor qo‘riqxonasining hududi va unga tutash g‘arbiy Hisor tog‘lari va tog‘oldi qiya tekisliklari butun O‘zbekiston janubi va Tojikiston past tog‘lari bilan qo‘shilib yagona Hisor-Darvoz zoogeografik orugini tashkil etadi.

Zoogeografik rayonlashtirish tizimida bu okrug Ko‘xna O‘rta dengiz faunistik oblasti Afg‘on-Turkiston zoogeografik o‘lkasining Eron-Turon kichik o‘lkasi tarkibiga kiradi (O.L.Krijanovskiy, 1965), G‘arbiy Hisorning janubiy O‘zbekiston Tojikiston bilan bir zoogeografik okrugga birlashtirilishi ma‘lum jihatdan taxminiyroqdirki, bu hududlar har biridagi fauna xususiyatida yaqqol ko‘rinib turgan tafovutlar mavjud.

G‘arbiy Hisor hayvonot olami, ayniqsa uning hasharotlari yetarlicha o‘rganilgan emas, aftidan umurtqasizlar orasida endem turlar ancha-muncha bo‘lishi mumkin.

Shu narsani ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, Hisor qo‘riqxonasi joylashgan Janubiy O‘zbekiston faunasida Ko‘xna O‘rtadengiz faunistik obladi Eron-Turon va O‘rta Osiyo tubjoy jonivorlari palearktika Hindimalayya va sharqiy Osiyoga xos xususiyatli jonzotlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu holat O‘rta Osiyoning zikr etilgan faunistik oblastlar bilan hududiy tutashganligi, tabiiy taraqqiyotdagi bar qator

mushtaraklar va hayvonlar landshaftning harakatchan komponenti ekanligi bilan izoxlanadi.

Qo'riqxonaning umurtqasizlari, xususan, hasharotlar olami yetarlicha to'liq o'rganilgan emas. Chivinlar, pashshalar, kapalaklar, chigirtkalar, arilar va asalarilar, qo'ng'izlar, chizillavuqlar va boshqa turdagi jonzotlar olami nihoyatda rang-barang va turlari son-sanoqsiz. O'rgimchaksimonlar juda ham ko'pchilik, ulardan zaharlililari qoraqurt va biy ancha-muncha e'tiborga tushgan turlardir. Bular ayni paytda juda kam o'rganilgan. Birgina chumolining 20 ga yaqin turi aniqlangan. Hasharotlar olamini yaqindan tadqiq etish orqali ularning foydali va zararli xususiyatlarini aniqlanadi. Shubhasiz endem va noma'lum jonivorlar haqidagi yangiliklar ma'lumotlarimizni tobora chuqurlashtiradi. Umurtqali hayvonlar Hisor qo'riqxonasida ancha durust o'rganilgan. Qo'riqxonada hozircha 3 turdagi baliqlar, 9 tur sudralib yuruvchilar, 180 tur qushlar va 30 tur sutemizuvchilar yashashi aniqlangan.

Baliqlar sinfi qo'riqxonada xonbaliq, marinka yoki shirmohi-qora baliq va yalangbaliq kabi atigi uch turi tarqalganligi o'rganilgan. Marinka va xonbaliq deyarli hamma daryolarda, yalangbaliq Qizildaryo va Xonqasuv daryosida tarqalganligi qayd etilgan. Tiniq va salqin tog' daryolarida sharsharalar ko'p bo'lishi ham baliq turlarining kamligiga sabab bo'lsa kerak. Suvda va quruqlikda yashovchilar, butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi qo'riqxonada ham juda kam. Ularning bor-yo'g'i ikkituri: yashil qurbaqa va ko'l baqasi qo'riqxonada mavjud. Aksincha tog'li mintaqada bo'lishiga qaramay, sudralib yuruvchilar sinfi bir qadar keng miqyosda tarqalgan. Qo'riqxonada hududida turkiston agamasi,

turkiston yalang'och ko'zli kaltakesagi, tez kaltakesaklar, Osiyo taqir ko'zli kaltakesagi, ko'rilon, suvilon, chiporilon, ko'lvorilon, o'qilon kabi reptiliyalar tez-tez uchraydi. Chegarasi adirga tutash joylarda toshbaqa ham yashaydi. Qo'riqxonaning hayvonot olamida ornitofauna turli-tuman va ko'p sonli bo'lishi bilan ajralib turadi. Xilma-xil muhitda va har xil hayotiy tarzga ega bo'lgan qushlar dunyosiga yirik, yirtqich va sayroqi mahalliy qushlar salmog'i katta.

Jahon «Qizil kitobi» ga kirgan tasqara yoki soqoldor ular ichida eng ulkani bo'lib, o'limtiklar bilan hayot kechiruvchi, u baland tog'larda yashaydi. Qishda ham boshqa o'lkalarga uchib ketmaydi. Janubiy O'zbekistongagina xos bo'lgan tasqara qo'riqxonasi sanitari sifatida e'zozlanadi. Humoy-Qumoy lochinomalari turkumiga mansub yirik yirtqich qushlardan bo'lib, oqbo'sh qumoy nomi bilan ham g'ajir nomi bilan ham yuritiladi. Dengiz sathidan 2000-2500 metr balandlikda muqim hayot kechiradi. Qoya qirralariga, qoyalar orasidagi yoriqlarga va borish qiyin bo'lgan baland tog'larga uya qo'yadi. O'limtiklardan tez xabar topadi, ular bilan ovqatlanadi. Noyob ornitofauna hisoblanib, Respublika «Qizil kitobi» ga kirgan. Humoy Osiyoning qo'shni baland tog'larida ham tarqalgan. Shuningdek, Hisor qo'riqxonasida qora kalxat, tog' burguti, lochin, itolg'i, tosh qirg'iy kabi yirtqich qushlar ham yashaydi.

«Hisor» davlat qo'riqxonasida uchraydigan Xalqaro Tabiatni muhofaza qilish Ittifoqi (TMXI) «Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvon va qushlar turlarining ro'yxati.

Qushlar	sini-	Klass	ptitsi-Class	Aves
1. Tasqara-	CHyorniy grif-	Aegyptus Monachus L.-	Cinereous black	

vulture.

2. Itolg‘i – Baloban – Saker Falcon- Falco cherrug.

Sut emizuvchilar – Mlekopitayushiye – Mammals

Taqaburunli ko‘rshapalaklar oilasi- Semeystvo podkovonosiyeye letuchiye

mishi – Family rhinolophidae

1. Katta taqaburun – Bolshoy podkovonos – Rhinolophus

ferrumeguinum.

Xobaklar oilasi- Semeystvo soneviye – Familu Muscardinidae

2. O‘rmon Xobagi- Lesnaya sonya-Dryomys nitedula

Olmaxonlar oilasi- Belichi-Family Sciur-idae

3. Qizil sug‘ur- Krasniy surok – Marmoata caudata

Yirtqichlar turkumi – Otryad xishniye – Order Carnivore

4. Ilvirs (qor qoplani) – Snejniy bars (irbis) – Uncia uncia- Snow

Leopard

O‘zbekiston Respublikasi «Qizil Kitobi»ga kiritilgan hayvon

va qushlar turlarining ro‘yxati

Baliqlar sinfi – ribi - Pisces

Sulaymon baliqlar oilasi – Semeystvo lososyeviye - Family salmonidae.

1. Amudaryo gulbalig‘i - Amudarinskaya forel - Amudarya Trout. Salmo

truta.

Qushlar sinfi – Klass ptitsi – Class Aves

Qirg‘iylar oilasi – Semeystvo yastrebiniiye – Family accipitridae.

1. Boltayutar – Borodach - Gypaetus barbatus- Bearded vulture.

2. Qumoy – Snejniy sip – Gyps himalayensis - Himalayan griffon

vulture.

3. Oq boshli qumoy – Belogoloviy sip – Gyps fulvus - Griffon vulture.

4. Burgut – Berkut – Aquila chysaetos -Golden eagle.
Laylaklar oilasi-Semeystvo Aistoviye-Family Ciconiidae
5. Qora laylak – CHyorniy aist - -Black stork Ciconia nigra.

Lochinlar oilasi – Semeystvo sokolneye – Family falconoid.

6. Lochin – Sokol Cancan –Falco peregrinus- Peregrine falcon.

Sut emizuvchilar – Mlekopitayushiye – Mammals

Silliq burunli ko‘rshapalaklar oilasi–Semeystvo gladkonosiye letuchiye
mishi–Family vespertilonidae

1. Oq qorinli o‘q quloq–Belobryuxiy streloux–Otonycteris hemprichi-
Hemprerichs long – eared bat

Taqaburunli ko‘rshapalaklar oilasi- Semeystvo podkovonosiye letuchiye
mishi – Family rhinolophidae

2. Kichik taqaburun–Maliy podkovonos-Rhinolophus hipposideros-
Letter horseshoe bat.

Yirtqichlar turkumi – Otryad xishniye – Order Carnivore

Ayiqlar oilasi – Semeystvo medveji - Family ursides

3. Qo‘ng‘ir ayiq – Tyanshanskiy buriy medved – Ursus arctos Linnaeus -
Tine Shan brown bear

Suvsarlar oilasi – Semeystvo kuni – Family mustelidae

4. O‘rta-Osiyo qunduzi – Sredneaziatskaya vidra – Lutra lutra seistanica
Birula-Centralasian otter

Mshuksimonlar oilasi - Semeystvo koshachi – Family felid.

5. Turkiston silovsini – Turkestanskaya ris – Lynx lynx isabellina Blyth-
Turkistan lynx

Baliqlar 1 tur , Qushlar 8 tur, Sut emizuvchilar 9 tur, Jami: 18 tur

Ko'ndalang yo'lli bo'ritish ilon *Lycodon striatus* Shaw

Tabiatda kamyob, kam o'rganilgan ilonlar turi. O'zbekiston Qizil kitobiga 2(VU:R)toifasida kiritilgan.

Tashqi ko'rinishi. Tana uzunligi 50-60 sm. bo'lgan uncha katta bo'lmagan ilon. Boshi tanasidan kuchsiz chegaralangan, tumshug'i uchi yumaloq. Tanasi tekis yaltiroq tangachalar bilan qoplangan. Kontrast yo'l-yo'l rangli bu tur O'rta Osiyoning boshqa barcha ilon turlaridan ajralib turadi. Usti qora yoki to'q jigarang oq yoki sariq ko'ndalang yo'lli. Ostki qismi oq yoki sarg'ish. Zaharsiz va insonlar uchun xavfli emas.

Tarqalishi. Janubiy Turkmaniston, O'zbekiston, G'arbiy Tojikiston, Shimoli sharqiy Eron, Afg'oniston, Pokiston, Xindiston. Nurota, Surxon va Kitob qo'riqxonlarida muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Soz tuproqli cho'llar, tog' oldilarida va dengiz sathidan 1800 metrgacha bo'lgan yon bag'irlarda yashaydi. Yashash tarzi yashirin, shom va tunda faol, kunduzi toshlar tagida, tuproq bo'shliqlarida va boshqa boshpanalarda berkinadi. Mayda kaltakesaklar bilan oziqlanadi. Iyunning oxiri-iyulda 2-4 ta tuxum qo'yadi.

Soni. Butun areali bo'ylab soni juda ham kam. Yashirin tarzda hayot kechirgani uchun soni bo'yicha aniq ma'lumotlar yo'q. Yagona uchratishlar qayd qilingan.



O‘rta Osiyo kobrasi, kapcha ilon *Naja oxiana* Eichwald

Ilonlarning tabiiy noyob turi. Juda zaxarli, lekin insonlarning chaqish hollari juda ham kam. Zaxari dorivor malhamlarni tayyorlashda foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro qonunchilik bilan muhofaza qilinadi. O‘zbekiston Qizil kitobiga 3(NT)-toifada – zaif turga yaqin deb kiritilgan. Shuningdek Xalqaro Qizil kitobga va SITESning II Ilovasiga kiritilgan.

Tashqi ko‘rinishi. Uzunligi 175-180 sm gacha bo‘lgan yirik ilon. Tanasi silliq tangachalar bilan qoplangan. Voyaga yetgan zotlari zaytun, kulrang, qo‘ng‘ir yoki deyarli qora rangda bo‘ladi, qorni ochsarg‘ish rangda. Yoshlari ko‘ndalang yo‘l-yulli. Bezovta qilinganida kobra tanasining oldi qismini ko‘taradi, bo‘ynini shishiradi, vishillagan ovoz chiqaradi, chayqaladi va dushman tomoniga tahdid solib, tashlanadi. Bunday xarakterli gavda tutishi uni O‘rta Osiyodagi barcha ilonlardan ajratib turadi.

Tarqalishi. Turkmaniston, Janubiy O‘zbekiston, Janubi-G‘arbiy Tojikiston, Shimoli-Harbiy Xindiston, Pokiston, Afg‘oniston va Shimoli-Sharqiy Eronda

uchraydi. O‘zbekiston hududida bu ilon Surxon, Kitob va Hisor qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi. Nurota qo‘riqxonasida ham yagona uchrashuvlar qayd qilingan.

Yashash tarzi. Tog‘ oldilari, tog‘larda (dengiz sahidan 2000 metr balandlikkacha) va tekisliklarda yashaydi. Daryo vodiylarida, daralar, butalar o‘sadigan toshli yon bag‘irlarda, xarobalar, qabristonlarda, dala va bog‘larning chekkalarida uchraydi. Baqa, qurbaqalar, kemiruvchilar, kaltakesaklar, kichik ilonlar(shu jumladan zaxarli), kamroq qushlar bilan oziqlanadi. Qo‘shilishi may oyida kuzatiladi. Iyul oyida urg‘ochisi 6-19 ta tuxum qo‘yadi va ulardan avgust oyining ikkinchi yarmi-sentabrda uzunligi 30 sm gacha bo‘lgan yosh kobralar dunyoga keladi.

Soni. O‘zbekistonning janubiy rayonlarida populyatsiyasining zichligi 1 km² maydonga 3-5 tasi to‘g‘ri keladi.



Qora laylak *Ciconia nigra* Linnaeus

Zaif, tabiiy kamyob tur. Butun areali bo‘yicha soni juda kam. O‘zbekistonning Qizil Kitobiga 2(VU:R)-toifada hamda SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta‘qiqlangan.


Tashqi ko‘rinishi. Oyoqlari va bo‘yni uzun yirik qush. Tanasining uzunligi 90-100 sm, qanotlari yoyilganda 185-205 sm, vazni 3 kg atrofida. Voyaga yetgan

qushlarning patlari qora, metal tusda tovlanadi, ulardan ko'kragi va qorni oq, tumshug'i, ko'z atrofidagi terisi yalang'och va oyoqlari qizil. Nari va modalarining rangi bir xil. Yosh qushlarda patlari qo'ng'ir, tushug'i qora, oyoqlari yashilsimon.

Tarqalishi. Yevropaning o'rmonlarida, Sibirda, Uzoq Sharq, Qirim, Kavkazda, O'rta Osiyo, Eron, Mo'g'iliston va Xitoyda uyalaydi. Afrika, Xindiston va Janubiy Xitoyda qishlaydi. O'zbekistonda G'arbiy Tyanshan va G'arbiy Pomir-Oloyning tog'li rayonlarida uyalaydi. Tekislik va past tog'li hududlarda ko'chib yurganida uchraydi. Zomin, Nurota, Surxon va Chotqol qo'riqxonalarida muhofaza qilinadi. Ko'chib yuradigan qushlar Zarafshon, Hisor, Kitob va Qizilqum qo'riqxonalarida xududlarida qayd qilinadi.

Yashash tarzi. Juda ham ehtiyotkor va yashirin hayot kechiradigan qush. Alohida juftlari insonlar manzilgohlaridan uzoq xilvat joylarda o'rnamshadi. O'rmon zonasida yirik daraxtlarda, qalin aralash yoki bargli o'rmonlarda, daryo qayirlari yoki botqoqlar oldida uyalaydi. O'rta Osiyoda tog' vodiylarida dengiz satxidan 700-2000 metrgacha balanlikda, qoyalar va jarliklarda, yetib bo'lmaydigan tog' tokchalari va karnizlarida, 6 dan 20 metrgacha balandda uyalaydi. Laylaklar jufti uyasidan ko'p yillar davomida foydalanadi. Kushlar har yili uyasini ta'mirlaydi va kattagina qurilmani diametri 1-1,5 m gacha yetkazadi. Uya uchun quruq qalin shox va ingichka shoxchalar material bo'ladi. Ochiq nov o't, barglar, shuvoq, efedra, qamish, mox va junlar bilan to'shalgan. Qora laylaklar apreldan oylarida urchishni boshlaydilar. Uyada tuxum bosganida 2-5 ta (6ta juda ham kam bo'ladi) yirik oq tuxumlar bo'ladi. Ota va ona tuxumni birga bosadilar va polaponlarini ham birgalikda boqadilar. Polaponlar iyulda uchishni boshlaydilar. Laylaklar suv xavzalarida, zax va botqoqli joylarda oziqlanadilar. Amfibiyalar, mayda baliqlar, mayda kemiruvchilar, xasharotlar, chuvalchanglar, mollyuskalar bilan oziqlanadi. Yakka va kichik guruhlarda mavsumiy ko'chadilar. Bahorgi uchib o'tishi fevral-martda, kuzgisi avgust oxirisentabrda kuzatiladi.

Soni. O'zbekistonning eng kamyob uyalaydigan kush turlaridan biri. Bizning mamlakatimiz hududida hammasi bo'lib 20 dan ortiq bo'lmagan juftlar uyalaydi, mavsumiy uchib o'tganda bir necha o'nlab zotlari qayd qilinadi.



Ilonxo‘r burgut *Circus gallicus* Gmelin

Tabiatan kamyob tur, O‘zbekistonning eng kamyob uyalaydigan yirtqich qush. Soni kamayishining asosiy sabablari: qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, to‘qay, tog‘ va cho‘l o‘rmonlarining kesilishi, uyalarining buzilishi, kam sonli ko‘payishidir. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2(VU:D)toifa – zaif, qisqarayotgan uchib o‘tuvchi tur sifatida kiritilgan. SITESning II-Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta‘qiqlangan.

Tashqi ko‘rinishi. Yirik yirtqich qush. Umumiy uzunligi 62-67 sm, qanotlari ochilganida 1,6-1,9 m, vazni 1,2-2,3 kg. Parvozda tanasi quyi kismini ko‘ndalang olachipor, juda och oq rangi bilan ajraladi. Dumining pastki qismida uch qora ko‘ndalang yo‘llari bor. Tanasining yuqori qismi qo‘ng‘irkulrang. Kallasi kattagina, “qattiq” och-sariq ko‘zli. Parvozi o‘ta yengil, xarakatchan.

Tarqalishi. Janubiy va Markaziy Yevropa, Shimoli-G‘arbiy Afrika, Kavkazda, Old Osiyo va O‘rta Osiyoda, Xindiston va Pokistonda, Janubi-G‘arbiy Sibirda va Mo‘g‘ilistonda uchraydi. O‘zbekistonda qumli cho‘llarda, to‘qayli o‘rmonlarda, qoldiq tizmalar va tog‘li rayonlarda(baland tog‘lardan tashqari) uyalaydi. Zarafshon, Nurota, Surxon, Chotqol qo‘riqxonalarida hududida va Quyi-Amudaryo biosfera rezervatida uyalashida muhofaza qilinadi. Uchib o‘tishida Qizilqum va Kitob qo‘riqxonasida muhofaza qilinadi.



Circus gallicus Gmelin

Yashash tarzi. Uchib o‘tuvchi qush. Daraxt-buta o‘simlari, ochiq joylar bilan birga keladigan turli tog‘ va tekislik landshaftlarida yashaydi. Tog‘larda dengiz sathidan 2500 m balandlikkacha uchraydi. Juda ham ehtiyotkor, ilonlar ko‘p bo‘lgan, inson kam keladigan yerlarda tarqalgan. O‘zlashtirilgan rayonlarda uchramaydi. Daraxtlar, butalar, jarliklar va qoyalarda uyalaydi. Bahorda, martning oxiri-aprelda uyalagan joylariga keladi, qishlovga sentabr-oktabrda uchib ketadi. Aprel-mayda modasi 1 ta(kamdankam 2 ta) tuxum qo‘yadi. Tuxum bosib yotishi bir yarim oyga yaqinni tashkil etadi

Soni. O‘zbekistonda faqatgina 20 juftga yaqini uyalaydi, shu jumladan, 1-2 jufti Chotqol qo‘riqxonasida, 2 juftdan Quyi-Amudaryo biosfera rezervati, Zarafshon, Nurota va Surxon qo‘riqxonalarida yashaydi.

Kichik burgut *Hieraaetus pennatus* Gmelin

O‘zbekistonda 1950-yillargacha odatiy bo‘lgan. Hozirgi vaqtda yashash joylarining yo‘q qilinishi(to‘qay o‘rmonlarining kesilishi, tog‘ vodiylarining o‘zlashtirilishi), uyalarining buzilishi va brakonerlik tufayli soni keskin kamaygan. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2(VU:D)-toifada kiritilgan – zaif, qisqarib borayotgan uchib o‘tadigan tur. SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta’qiqlagan.

Tashqi ko‘rinishi. O‘rtacha kattalikdagi yirtqich qush. Vazni 500-1300 g, bo‘yi 45-53 sm, qanotlari ochilganda 1-1,3 m. Modalari rangi bo‘yicha narlaridan farq qilmaydi, lekin bir oz yirikroq. Rangining ikki formasi bor, qora va och. Qora rangli qushlarda rangining umumiy foni qora-qo‘ng‘ir yoki jigarrang. Oqish formalari qushlarda orqa tomoni och-qo‘ng‘ir, qorin qismi oqish yoki sarg‘ish-qizil,

qanotining eshuvchi patlari qora-qo'ng'ir tusda. Och tusli va to'q tusli qushlarda dum ustida yorqin ko'ndalang yo'llari bor, kurak qismida yorqin dog'lar(turing ajratigan yashil belgisi) bor. Yosh qushlar rangi bo'yicha kattalariga o'xshash. Dumi uzun va ensiz, tekis kesilgan, chetlarida ochiq yo'llari bor. Ilik suyagidan panjalarigacha patlari bor. Parvozi juda tez va xarakatchan. Uyali joylarda ancha ko'p qichqiradilar, ko'pincha «kli-kli-klikli» degan kuchli qichqiriqlari eshitiladi.

Tarqalishi. Areali Yevrosiyo, Avstraliya va Shimoli-G'arbiy Afikani o'z ichiga oladi. Yevrosiyoda uyalashda Janubiy va Sharqiy Yevropada (o'rmon-dasht va o'rmon zonasining janubida), Kavkaz, Qozog'iston, O'rta Osiyo, Mongoliya, G'arbiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Sibirda uchraydi. O'zbekistonda G'arbiy Tyanshanda, G'arbiy Pomir Oloyda, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiylarida tarqalgan. Nurota, Zomin, Zarafshon, Kitob, Hisor, Surxon va Chotqol davlat qo'riqxonalarida, Zomin va Ugom-Chotqol milliy tabiiy bog'larida muhofaza qilinadi. Xindiston va Pokistonda qishlaydi.

Yashash tarzi. Ko'chib o'tadigan qush. Ham tekisliklarda, ham tog'larda (dengiz sathidan 2000-2400 metr balandlikda) yashaydi. O'zbekistonda tog' va tekisliklarning qayir o'rmonlarida uyalaydi. Uyalari baland daraxtlarda, yirik shoxlarning ayrilarida, tanasiga yaqin joylashgan. Ba'zida qoyalarda uya quradi. Uyasining diametri 70-100 sm, shoxlardan qurilgan, nov quruq o't, yangi shabbalar, yashil o'tlar bilan qoplangan. Insonlar tomonidan bezovta qilinmasa uyadan uzoq muddat foydalanadi. Bahorda uyaga aprel oyining boshlarida uchib keladi, kuzda sentabrning oxiri-oktabrning boshida uchib ketadi. Tuxum qo'yishi aprelning o'rtasi-oxirida kuzatiladi va unda 2ta (kamdan-kam 1 yoki 3ta) tuxum bo'ladi. Tuxumning ochlishi 38 kun davomida amalga oshadi. May oyining oxiriyunning boshida poloponlar tuxumni yorib chiqadi; ular iyulning ikkinchi yarmida, 45-50 kunlik davrida uchadi va kuzgacha ota-onasi bilan qoladi. Mayda va o'rta qushlar, kichik sut emizuvchilar, kaltakesaklar bilan oziqlanadi.

Soni. O'zbekiston hududida faqatgina 20 ga yaqin uyalaydigan juftlar qayd qilinadi. Eng ko'p soni Nurota tizmasida qayd qilinadi (14 juftga yaqin, shu jumladan 8-10 jufti Nurota qo'riqxonasi hududida).




Burgut *Aquila chrysaetos* Linnaeus

Yirtqich qushlarning kamyob turi. Soni kamayishining asosiy sabablari brakonerlik, uylarining buzilishi, pushtililgining pastligi. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2(VU:R)-toifada kiritilgan – zaif, tabiiy kamyob tur. Ovlash ta’qiqlagan.

Tashqi ko‘rinishi. Uzun qanotli va uzun keng dumli yirik yirtqich qush, burgutlar ichida eng yirigi va kuchlisi. Qanotlari ochilganda 1,8-2,3 metr atrofida, umumiy uzunligi 76-95 sm, vazni 3-6,5 kg. Modasi naridan yirikroq. Voyaga yetgan qushlar jigarrang-qo‘ng‘ir tusda, qanotlari ostida ochiq rangda. Boshining usti va bo‘yning orqasi tillarang. Yosh qushlar (5 yoshgacha) dumi tagidagi keng oq yo‘li va qanotlaridagi oq dog‘lari bilan ajraladi. Parvozi muallaq, erkin va xarakatchan.

Tarqalishi. Shimoliy yarim sharda keng tarqalgan, ammo ko‘pchilik mintaqalarda hozirgi vaqtga kelib yo‘qolib ketgan yoki o‘ta kamyob bo‘lib qolgan. O‘zbekiston hududida uylari barcha tog‘li rayonlarda, Ustyurt platosida va Janubiy Orolbo‘yida uchraydi. Uylari Nurota, Zomin, Kitob, Hisor, Surxon va Chotqol davlat qo‘riqxonalarida, Zomin va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘larida muhofaza qilinadi.



Yashash tarzi. O‘rmonlar, tog‘lar va cho‘llarda yashaydi. O‘zbekistonda qumli cho‘llar, qoldiq past tog‘lar, tog‘ oldilari, tog‘larning o‘rta va yuqori mintaqalarida tarqalgan. Faol yirtqichkemiruvchilar, turli qushlar, ilonlar, toshbaqalar, quyonlar bilan oziqlanadi. Tulkilarga, shuningdek yovvoyi va uy tuyoqli hayvonlari bolasiga xamla qiladi. Ba’zida o‘laksa ham iste’mol qiladi. Burgutlar jufti doimiy joyda o‘troq yashaydi va yildan yilga bitta uyani egallaydi yoki navbat bilan 2-3 uyada yashaydi. Juftlari doimiy. Boshqa yirtqich qushlardan uyali joyini juda faol ximoya qiladi. Qoyalarda, tik toshli yon bag‘irlarda, lyossli jarlarda, daraxtlarda, elektr uzatkich liniyalarida uya quradi. Uyasi diametri 1-2 m atrofida, shoxlardan tekis shaklda, noviga quruq o‘t va mox solingan va chetlarida yangi yashil daraxt shoxlari va butalar terilgan. Tuxum bosishi 43-45 kun davom etadi. Odatda polaponlaridan faqat bittasi, eng kuchlisi tirik qoladi. Yosh qushlar uyadan iyun-iyulda uchib ketadi.

Soni. O‘zbekiston hududida jami 80-100 uya qurgan juftlar qayd qilinadi.

Itolg'i Falco cherrug Gray

Yirtqich qushlarni O'rta Osiyoda noqonuniy ovlash, uylarini buzish, elektr uzatish liniyalarida nobud bo'lishi tufayli soni anchagina qisqargan kamyob turi. O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan, 3(NT)toifa – uyali va ko'chib yuradigan, zaifga yaqin tur. SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlangan.

Tashqi ko'rinishi. Uzun, o'tkir uchli qanotli o'rtacha o'lchamdagi yirtqich qush. O'rta Osiyoda uchraydigan eng yirik lochinlardan biri. Qanotlarini yozganda uzunligi 1-1,3 m, umumiy uzunligi 42-60 sm, narining vazni 800-900 g, modasi 1000-1100 g. Modalari narlaridan yirikroq. Yuqori qismining rangi to'q-qo'ng'irdan to sarg'ish-qizilgacha, mallaolachipori bilan, qanotining katta patlari to'q-qo'ng'ir.

Tarqalishi. Yevropda, Sibirning janubiy rayonlarida, Oltoy va Baykalortida, Afg'onistonda, Eron, O'rta va Markaziy Osiyoda, G'arbiy Xitoy va Tibetda uyalaydi. G'arbiy va O'rta Osiyo, Xindistonda qishlaydi. O'zbekistonda uyalashda, uchib o'tish va qishlovda tekislik va tog'li rayonlarda uchraydi. Quyi-Amudaryo biosfera rezervati, Hisor, Chotqol qo'riqxonalarini, Ugom-Chotqol va Zomin milliy tabiat bog'lari hududlarida muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Tekisliklarda(o'rmon dashtlar, dasht, chala cho'llarda) va tog'larda(tog' etaklaridan baland tog'largacha) yashaydi. Yevropada ko'pincha qishloq xo'jalik rayonlarida va shaharlarda joylashadi. Ochiq va yarim ochiq landshaftlarni afzal ko'radi, qalin o'rmon massivlaridan o'zini chetga oladi. Arealining shimolida uchib o'tadigan, janubida ko'chib yuradigan qush. Kuchli, tezkor va serxarakat yirtqich. Nari unga ozuqa tashiydi. Polaponlari bir yarim oylik bo'lganidan keyin uchishni boshlaydi. Kuz va qishda itolg'i katta masofalarga ko'chib yuradi.

Soni. O'zbekistonda 120-150 atrofida uyali juftlari qayd qilingan.



Boltayutar *Gypaetus barbatus* Linnaeus

Yirtqich qush-o'laksaxo'rlarning tabiiy kamyob turi. Soni qisqarishining asosiy sabalari-qushlarning brakonerlar tomonidan otilishi, ozuqa bazasining yetishmasligi, kam pushtiligi. O'zbekiston Qizil kitobiga 2(VU: R)-toifada kiritilgan – zaif, tabiiy kamyob tur. Xalqaro Qizil kitobga va SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlagan.

Tashqi ko'rinishi. O'rta Osiyoning eng yirik qushlaridan biri. Vazni 5,5-7 kg, umumiy uzunligi 100-115 sm, qanotlari yozilganda 2,6-2,8 m. Modalari naridan yirikroq. Uzun ensiz qanotli va uzun xanjarsimon dumli, ulkan xarakterli sharpali qushboltayutarni katta masofadan boshqa yirtqich qushlardan ajratib olish imkonini beradi. Voyaga yetgan qushlarda boshi, bo'yni va qorin tomoni oqishoqishdan to'q-mallagacha; tumshug'i tagida soqol hosil qiladigan (nomi shundan kelib chiqqan) qora sochsimon patlari bor; tanasining orqa tomoni kul rang, qanotlari va dumi to'q-kul rang. Yosh qushlari (5 yoshgacha) qora rangli. Boshqa o'laksaxo'rlardan farqli, boltayutarning boshi va bo'yni patli.

Tarqalishi. Janubiy Yevropa, Sharqiy va Janubiy Afrika, Old, Oʻrta va Markaziy Osiyoning togʻli mintaqalari. Oʻzbekiston hududida Gʻarbiy Tyanshan va Gʻarbiy Pomir Oloyda uyalaydi, baʼzan Qizilqum choʻliga koʻchadi. Nurota, Zomin, Kitob, Hisor, Surxon va Chotqol davlat qoʻriqxonalarida, Zomin va Ugom Chotqol milliy tabiiy bogʻlarida uylarida muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Oʻtroq kun kechiradi. Togʻlarning oʻrta va yuqori mintaqasida, 1000 metrdan 4000 metrgacha boʻlgan balandliklarda uyalaydi. Uyasini chiqish qiyin boʻlgan qoyalarga quradi va shoxshabbalar, eski suyaklar, teri parchalari va quruq oʻtdan iborat. Polaponlarning rivojlanishi juda uzoq davom etadi, shuning uchun uya qurish vaqtli boshlanadi. Tuxum qoʻyishi qishda, dekabr yanvarda amalga oshadi. Uyada 1-2 tuxum boʻladi, lekin qoida boʻyicha faqat bitta polapon oʻsib, rivojlanadi. Tuxum bosish 55-60 kun davom etadi. Polaponlari aprelda tuxumdan chiqadi, pati oʻsib, iyunda ucha boshlaydi, lekin otanasi bilan kuzgacha qoladi. Boltayutar asosan oʻlaksa yeydi, shuningdek, oshqozonida oson xazm boʻladigan suyaklar bilan ham oziqlanadi. Baʼzida toshbaqalar va kemiruvchilarni ovlaydi.

Soni. Oʻzbekiston hududida 50-70 juftga yaqini, shu jumladan, 5-6 jufti Nurota, Turkiston, Zarafshon va Chotqolda va 15-20 jufti Hisor tizmasida uyalaydi. Oʻzbekiston qoʻriqxonalarida ichida boltayutarning eng koʻp soni Hisor qoʻriqxonasida 18 ga yaqini kuzatiladi.



Tasqara *Aegypius monachus* Linnaeus

Yirtqich o'laksaxo'r-qushlarning kamyob turi. Soni qisqarishining asosiy sabablari-uyalarining buzilishi, qushlarning brakonerlar tomonidan otilishi, ozuqa bazasining yetishmasliligi, kam pushtliligi. O'zbekiston Qizil kitobiga 3(NT)-toifada kiritilgan – zaifga yaqin tur. Xalqaro Qizil kitobga va SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlagan.


Tashqi ko'rinishi. Uzun, keng qanotli va kalta keng dumli juda yirik qush. Qanotlari ochilganida 2,53 metrgacha yetadi, vazni 7-12 kg. Rangi to'q-qo'ng'ir. Boshi kulrang pat bilan qoplangan, bo'yni deyarli yalong'och, bo'yni atrofida uzun tarqoq patlardan iborat och-qo'ng'ir yoqasi bor. Parvozi muallaq, erkin.

Tarqalishi. Old Osiyo, O'rta va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika, Janubiy Yevropa, Kavkazda va Himolay tog'larida yashaydi. O'zbekistonda G'arbiy Tyanshan, G'arbiy Pomir Oloyda, Bo'kantov va Tomditov qoldiq tog'larida tarqalgan. Nurota, Zomin, Kitob, Hisor, Surxon va Chotqol davlat qo'riqxonalarida, Zomin va UgomChotqol milliy tabiiy bog'larida uyalarida muhofaza qilinadi. Uyalamaydigan vaqtda O'zbekistonning tekislik rayonlarida ham uchraydi.

Yashash tarzi. O'ziga xos o'laksaxo'r, yovvoyi va uy tuyoqli hayvonlari o'laksalari bilan oziqlanadi. Tabiiy sanitar sifatida katta foyda keltiradi. Tog' etaklarida, tog'larning quyi va o'rta mintaqalarida uya qurib yashaydi. O'troq hayot kechiradi, lekin ba'zida uyasidan o'nlab kilometr masofaga borib keladi. Juflligi doimiy. Uyalarini tog' yon bag'irlarida, yovvoy bodom yoki archalarga quradi. Qoldiq tizmalarda, gohida qoyalarda uya quradi. Markaziy Qizilqumda saksolvulga in qurgan yagona hodisa kuzatilgan. Uyasi diametri 2-3 metr bo'lgan, shox-shabbalardan tiklangan ulkan qurilmani tashkil qiladi va ko'p yillar davomida foydalaniladi. Uyasida yashash davri 5,5–6 oyni tashkil etadi. Fevralning oxiri-martda modasi 1ta tuxum qo'yadi. Tuxumni bosish 54-56 kun davom etadi. Polaponlari aprelning oxiri – mayda tuxumdan chiqadi. Ikkala ota-onasi tuxumni bosadi va polaponni oziqlantiradi. Polaponning patlari chiqqunicha ota-onasi

sovuq xavodan asraydi va kunduzgi issiqda tanasi bilan quyoshni to'sadi. Yosh tasqaralar uyasidan iyulning oxiri-sentabrning boshlarida, 110 kunlik bo'lganida uchib ketadi.

Soni. O'zbekiston hududida 80 ga yaqin uyali juftlari qayd qilingan. Populyatsining eng katta zichligi-30 juft atrofida va Nurota qo'riqxonasi hududida kuzatiladi.



Oqbosh qumoy *Gyps fulvus* Hablizl

Yirtqich o'laksaxo'r-qushlarning kamyob turi. Soni qisqarishining asosiy sabablari brakonerlar tomonidan otilishi, uyalarining buzilishi, ozuqa bazasining yetishmasligi, kam pushtiligi. Bundan tashqari bu qushlar uchun veterinariyada qo'llaniladigan va organizmlariga uy hayvonlari o'laksalarini iste'mol qilganidan so'ng o'tib qoladigan ayrim preparatlar o'ta zaxarlidir. O'zbekiston Qizil kitobiga 3(NT)toifada kiritilgan – zaifga yaqin tur. Xalqaro Qizil kitobga va SITESning II Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlagan.

Tashqi ko'rinishi. Uzun, keng qanotli, qisqa va keng dumli juda yirik qush. Qanotlari ochilganida 2,4-2,8 metrgacha, vazni 6-12 kg. Parvozda tasqaraga o'xshaydi, lekin tanasining och-jigarrang tusi bilan ajralib turadi. Dumi va qanotlari qora. Tasqaraga o'xshab boshi hamda bo'ynida patlari yo'q, och-kulrang tuklar bilan qoplangan. Bo'yin atrofida uzun patlardan yorqin yoqasi bor. Parvozi muallaq, erkin.

Tarqalishi. G'arbiy, O'rta va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika, Janubiy Yevropa hamda Xindiston tog'larida yashaydi. O'zbekistonda G'arbiy Tyanshanda, G'arbiy Pomir-Oloyda, Bo'kantov va Tomditov qoldiq tog'larida uyalaydi. Nurota, Zomin, Kitob, Hisor, Surxon va Chotqol davlat qo'riqxonalari, Zomin va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'lari hududlarida uyalashda muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Tog'larning quyi va o'rta mintaqasida qoyalarda va jarliklarda bir



necha juftli guruhlar yoki koloniya bo'lib uyalaydi. O'troq yashaydi, lekin ba'zida tekislikka ko'chib turadi. Juftlari doimiy, butun umr bog'langan. Uyalash davri 5,5 oy atrofida davom etadi. Tuxum quyishi fevralning oxiri-martning boshida kuzatiladi va uyada 1ta(juda kam hollarda 2ta) tuxum bo'ladi. Uyasidan uchib chiqqanidan keyin ota-onasi taxminan 3 oy davomida bolasini qo'shimcha oziqlantirib turadi. O'ziga xos bo'lgan o'laksaxo'r, o'lgan hayvonlar murdasi, asosan yovvoyi va uy tuyoqli hayvonlari bilan oziqlanadi. Tasqaraga o'xshab katta balandlikda muallaq uchib, ozuqa izlaydi.

Soni. O'zbekiston hududida 140 ga yaqin uyali juftlari qayd qilingan. Eng katta zichligi – 70 juftgacha Nurota tizmasida qayd qilingan.

Qo'ng'ir ayiq *Ursus arctos isabellinus* Horsfield

Qo'ng'ir ayiqning tabiatda kamyob, mozaik tarqalgan, alohida yashaydigan kenja turi. XX asrning ikkinchi yarmida noqonuniy ovlash, tog' o'rmonlarining kesilishi, mollarning xaddan ortiq boqilishi va insonlar tomonidan bezovta qilinishi natijasida areali va soni kuchli qisqargan. Hozirgi vaqtga kelib ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida soni barqarorlashgan. O'zbekiston Qizil kitobiga 2-toifasida va SITESning I Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlangan.

Tashqi ko'rinishi. Yirik hayvon. Qo'ng'ir ayiqning boshqa kenja turlaridan nisbatan kichik o'lchamlari, och rangi va oldi panjalarida uzun oqish tirnoqlari bilan ajralib turadi. Tanasining uzunligi 140 sm atrofida, vazni 300 kg gacha.

Tarqalishi. Tyanshan, Pomir Oloy va Himolay tog'larida yashaydi. O'zbekistonda XX asr boshlarigacha barcha tog'li hududlarda, Piskom, Ugom, va Hisor tizmalarining o'rta va baland tog' qismida saqlanib qolgan. Ayiqlarning asosiy qismi Hisor, Zomin, Kitob va Chotqol qo'riqxonalari va Zomin milliy tabiat bog'larida muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Dengiz sathidan balandligi 1500-3500 m bo'lgan tog'larning o'rta va yuqori mintaqasida yashaydi. Ayiqlarni ko'proq archazorlarda uchratish mumkin. Ba'zida uy hayvonlarga ham xujum qiladi. Martdan oktabrgacha faol, qishni uyasida uxlab o'tkazadi. Urg'ochisi ikki yilda bir marta

nasl beradi. Qo‘shilishi mayiyunda kuzatiladi. Ayiqchalar (1-3ta) yanvar-fevralda tug‘iladi, uyasidan martaprelda chiqadi. Yosh hayvonlar 3-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi. Umrining davomiyligi 30 yilgacha.

Soni. Qizil kitob ma‘lumotlari bo‘yicha O‘zbekiston hududida 500-600 tagacha ayiqlar yashaydi. Hisor qo‘riqxonasida 100 ga yaqin, Chotqol qo‘riqxonasida 70-80 ta, Kitob qo‘riqxonasida 6-7ta ayiq qayd qilingan. Zomin qo‘riqxonasi va Zomin milliy tabiat bog‘ida taxminan 14-15 ayiq yashaydi.



Turkiston silovsini *Lynx lynx isabellina* Blyth

Silovsinning kamyob, yo‘qolib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja turi. Brakonerlik, tog‘ o‘rmonlarining kesilishi va ozuqa bazasining kamayishi tufayli areali va soni to‘xtovsiz qisqarib borayapti. O‘zbekiston Qizil kitobiga 2(VU:D)-toifasida va SITESning I Ilovasiga kiritilgan. Ovlash ta‘qiqlangan.

Tashqi ko‘rinishi. Yirik, uzun oyoqli, o‘rtacha itga teng keladigan yovvoyi mushuk. Tanasi qisqa, miqti, boshi dumaloq, basharasi yonlari xarakterli “chekka soqolli”. Qulog‘iing uchlarida qora sochlardan iborat uzun gajimi bor. Dumi qisqa, xuddi kesilgandek, uchi qora. Qishki mo‘ynasi juda qalin, yumshoq, oqish-qo‘ng‘ir yoki kulrang, orqasida va oyoqlarida bilinar-bilinmas dog‘lari bor. Yozgi mo‘ynasi

kaltaroq, mallaranga yaqin. Erkagi tanasining uzunligi 76-106 sm, urg'ochisiniki 73-99 sm, dumining uzunligi 20 sm. Vazni 8-17 kg. Tovushi – qo'pol, yo'g'on miyovlash.

Tarqalishi. Silovsin Yevrosiyo va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan va bu juda katta arealda 10 tagacha kenja turlari ajratiladi. Silovsinning Turkiston kenja turi O'rta Osiyoning (Kopet Dog'dan tashqari), Markaziy Osiyo va Qozog'istonning tog'li rayonlarida tarqalgan. O'zbekistonda Turkiston, Hisor, Ko'xitang va Bobotog' tizmalarida saqlanib qolgan. Zomin, Surxon, Hisor qo'riqxonalari va Zomin milliy tabiat bog'ida muhofaza qilinadi. Chotqol qo'riqxonasida silovsinning populyatsiyasi yo'q, lekin Maydontol uchastkasiga ba'zida Qirg'iziston tomonidan, Sari-Chelek qo'riqxonasidan kirib keladi.

Yashash tarzi. Tog'larning ignabargli va yaproqli daraxt o'rmonlarida, quyon, kemiruvchi va qushlar mo'l bo'lgan o'rta va yuqori mintaqasida yashaydi. Ko'pincha archa va butalar o'sgan, ochiq qoyali va sochilgan toshli tik yon bag'irlarda kun kechiradi. Soy va kichik daryolar vodiylaridagi tog' to'qaylarida ham uchraydi. Yoz paytida alp o'tloqlarining quyi chegarasigacha ko'tariladi. Qishda, tog'larda qor kalın tushganidan keyin pastga tushadi. Doimiy uchastkalarda o'troq yashaydi, lekin qorning ko'pligi va ozuqaning yetishmasligi sababli uzoq ko'chishlar qilishi mumkin. Asosan oqshomda va tungi hayot kechiradi, ba'zida kunduzi ham faol. Daraxt va qoyalarda erkin yuradi. Yirtqich. Asosiy o'ljasiquyonlar, sug'urlar, dalasichqonlar, to'ng'iz va tog' echkilarining bolalari, kaklik, ahyonda uy echkisi va qo'ylarga ham xujum qiladi. O'ljasini pistirmada, qoya yoki daraxtda berkinib ovlaydi. Kuyikishi fevral-martda kuzatiladi. Bo'g'ozligi 67-74 kungacha davom etadi. May-iyunda urg'ochisi qalin chakalakzorda yashiringan uyasida 1-4 tagacha(ko'proq 2-3ta) bolalaydi. Mushukchalar ko'zi ko'rmaydigan va ojiz tug'iladilar, ko'zlari o'n ikkinchi kuni ochiladi. 50 kunlik bo'lganidan so'ng bolalari g'o'sht yeya boshlaydi. 3 oylik bo'lganida bolalari uyasini tark etadi va onasining izidan borib, ov qilishni o'rganadi. Oila kuykish davrigacha buzilmaydi. Yosh silovsinlar ikki yoshga to'lganidan so'ng jinsiy voyaga yetadilar. Umrining davomiyligi 17 yoshgacha.

Soni. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda XX asrga kelib turkiston silovsinining soni keskin qisqargan. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston hududida 100 ga yaqini yashaydi. Asosiy qismi Hisor tizmasida (50-60 bosh), shu jumladan, 27 silovsin Hisor qo‘riqxonasida yashaydi.



Ilvirs, tog‘ ilvirsi *Uncia uncia* Schreber

Baland tog‘larning o‘ziga xos vakili, jaxon faunasining eng kamyob va yetarlicha o‘rganilmagan turi. Butunlay yo‘q bo‘lish arafasida. Inson tomonidan muntazam ta‘qib qilinishi, brakonerlik, yashash joylarining o‘zlashtirilishi natijasida soni to‘xtovsiz qisqarib bormoqda. O‘zbekistonning Qizil kitobiga 1(CR)-toifasida kiritilgan. Shuningdek, Xalqaro Qizil kitob va SITES-ning I-ilovasiga kiritilgan va bu tur yashaydigan hamma mamlakatlar hududlarida muhofaza qilinadi. Ovlash ta‘qiqlagan.

Tashqi ko‘rinishi. Mushuksimonlar oilasiga kiruvchi yirik yirtqich hayvon. Tanasi yer bag‘irlagan, cho‘zilgan, xarakatchan, dumi juda uzun. Dumining uzunligi bilan tana uzunligi taqqoslansa, mushuksimonlar oilasi ichida qor qoplonining dumi eng uzundur va u tanasi uzunligining to‘rt dan uch qismini tashkil etadi. Panjalari nisbatan kalta va qo‘polroq, keng, kuchliroq. Mo‘ynasi quyuuq, uzun va yumshoq. Rangi kul rang-malla, umumiy oqish fonida yirik noaniq halqasimon va yoppa mayda qora dog‘lar sochilgan. Tanasining uzunligi 110-125 sm, yag‘rinigacha balandligi 60 sm gacha, dumining uzunligi 90-105 sm, vazni 20-40 kg. Urg‘ochisi erkagidan kichik.

Tarqalishi. O‘rta va Markaziy Osiyo, Himolay, Tibet, Oltoy, Sayan tog‘larida va Mo‘g‘iliston tog‘larida tarqalgan. O‘zbekistonda Hisor, Turkiston va G‘arbiy Tyanshan tizmalarining baland tog‘larida tarqalgan. Hisor, Zomin, Chotqol qo‘riqxonalarida, Zomin hamda Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘larida muhofaza qilinadi.

Yashash tarzi. Yashash joylariga yetib borishning qiyinligi va turning kam sonligi tufayli ilvirnsning yashash tarzi shu vaqtgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan va turning soni bo‘yicha aniq ma‘lumotlar yo‘q. Bu yashirin, ehtiyotkor hayot kechiradigan hayvon baland tog‘ va o‘rta tog‘larda, dengiz sathidan 1500-5000 metr yuqorida yashaydi. Katta bo‘lmagan ochiq yassi tog‘lar, tor vodiylar, tik daralar va qoyalar hamda qalashgan qoyali joylarni afzal ko‘radi. Boshqa tog‘ hayvonlariga o‘xshab ilvirs muntazam mavsumiy ko‘chishlar qilib turadi: yozda tuyoqlilar ortidan doimiy qor chegarasigacha qo‘tarilib, baland tog‘lar alp o‘tloqlariga chiqadi; yozda o‘rmon mintaqasiga tushadi. Ilvirnsning asosiy o‘ljasiga tog‘ echkilari va yovvoyi qo‘ylar kiradi, shuningdek u to‘ng‘iz, kiyklarni ovlaydi, sug‘urlar va yumronqoziqlar, Himoloy ulari va ham kakliklarni tutadi. Tuyoqli hayvonlar kam bo‘lgan joylarda ilvirs uy chorvasiga ham xujum qiladi. Ilvirs o‘ljasiga tovushsiz yaqinlashadi yoki pistirmada poylaydi va unga kutilmaganda tashlanadi. U 10 metrgacha uzunlikka va 3 metrgacha balanlikka sakrashi mumkin. Odatda kechki va ertalabki soatlarda ov qiladi, kunduzi panada dam oladi. Hayvonlar tanho yashaydi. Erkagi yashaydigan uchastkasi qisman 1-3ta

urg'ochilari yashaydigan joylar bilan kesishishi mumkin. O'zining juda katta ov qilish hududi bo'ylab (100 kv. km atrofida) yirtqich o'lja qidirib o'ziga ma'lum yaylovlarni aylanib, belgilagan yo'li bo'yicha ko'chib yuradi. Urg'ochisi ikki yilda bir marta bolalaydi. Kuyikish davri fevral-martda bo'ladi. Erkagi urg'ochisi bilan faqat shu paytda juftlashadi va bolalarini tarbiyalashda qatnashmaydi. Uch oydan so'ng urg'ochisi g'orda yoki qoya yorig'ida qurgan uyada 2-4ta(ba'zan 1 yoki 5ta) bola tug'adi. Uy mushugidek keladigan yangi tug'ilgan bolalari ojiz bo'ladilar. Bir yarim xaftalik bo'lganida ularning ko'zlari ochiladi. Ikki oylik bo'lganida bolalari inidan chiqib, o'ynadi va shu vaqtdan boshlab onasi go'sht yeyishga o'rgatadi. Uch oylik bo'lganida onasiga ergashadi, besh-olti oylik bo'lganida esa birga ov qilishni boshlaydilar. 1-1,5 yoshda bolalari mustaqil tanho yashashga o'tadi, 2-3 yoshda jinsiy balog'atga yetadi. Tabiatda ilvirs umrining davomiyligi 13 yoshni, tutqunlikda esa 20-22 yoshni tashkil qiladi.

Soni. Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish umumjahon jamg'armasi (WWF) ma'lumotlari bo'yicha tabiatda ilvirslarning umumiy soni taxminan 4,5-7 mingtani tashkil etadi va yana 2 mingtachasi hayvonot bog'larida yashaydi va muvaffaqiyatli ko'paytirilmoqda. Bu hayvonlarning eng ko'pi Xitoyda 2000–2500ta, Qirg'izistonda – 800–1400 ta va Mo'g'ilistonda – 500–1000 tasi yashaydi. O'zbekistonda 30-50 tachasi qayd qilinadi, shu jumladan 1216 tasi Hisor qo'riqxonasi hududida, 2-3tasi Zomin qo'riqxonasida yashaydi.



4.2.Hisor davlat qo'riqxonasi bioxilma – xillikni muhofaza qilish chora tadbirlari.

Insoniyat rivojlanar, ko'payar, har tomonlama mukammallashib borar ekan u tabiatdan keng miqdorda foydalanadi. Tabiatdagi erkin sistema, zanjirdagi barcha o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda. Qachonlardir bu zanjirda uzilish bo'lib, u insoniyatni katta halokatga olib keladi. Ularning hozirgi holatini saqlab qolish uchun ham "Qizil kitob"lar tashkil etilmoqda. O'zbekistonda birinchi "Qizil kitob" 1979-yilda ta'sis etilgan. "Qizil kitob" nabotot olamining noyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida mukammal ma'lumot beradi. Uning vazifasi jamoatchilik va davlat idoralarini tabiat muhofazasi masalasiga jalb etishdan yoki turli genofondni saqlab qolishga ko'maklashuvdan iborat. Undan tashqari bir necha "Qizil kitob"lar nashrdan chiqarildi. Birgina O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostidagi 163 turi "Qizil ktob"ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan. Ushbu turlarning taqdiri bilan Respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib keldilar. Keying yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasidan yana 138 turini "Qizii kitob"ga kiritdilar. Shunday qilib 1998- yil O'zbekiston "Qizil kitobi"dagi o'simliklar soni 301 taga yetdi. Demak, o'simliklar bilan birga yashovchi, oziqlanuvchi hayvonlar turi yo'qolib ketmoqda. "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosining tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan ta'sisga binoan 4 guruhga ajratiladi.

1. Yo'qolgan va yo'qolish arafasidagi turlar:

Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin ayrim yig'ib olish qiyin bo'lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolgan ehtimoliga ega bo'lgan o'simliklar.

2. Yo'qolib borayotgan turlar:

Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofaza talab etadigan o'simliklar.

3. Kamyob turlar:

Ma'lumki kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

4. Kamayib borayotgan turlar:

Ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydoni tabiiy sabablarga ko'ra yoki insonlar ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda bunday o'simliklarni har tomonlama nazorat qilish talab etiladi.

“Qizil kitob”da har bir turning lotincha, o'zbekcha, ruscha nomlari va ularning qaysi oila hamda turga mansubligi ko'rsatilgan bo'lishi shu jumladan ularga umumiy ta'rif berish ularni uchrash joylarini karta ostida belgilanishi, o'simlik bo'lsa gul poya va bargi, ildiz mevasi: hayvonlar rasmi bo'lishi shartdir. Tabiatni muhofaza qilishdagi tadbirlar va ilmiy ishlar quyidagilardan iborat.

Qo'riqxonada mavjud o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash, yo'qolishini oldini olish, ko'payishini o'rganish uchun ilmiy ishlar olib boriladi. Qo'riqxonada boshqarmasida bo'lib bevosita ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, ularning ilmiy ishlaridan xabardor bo'ldik. Qo'riqxonada ilmiy tadqiqot ish olib bo'rish uchun ko'pgina xodimlar ishlar ekan. Shundan 4 ta katta ilmiy xodim, 3 ta laboratoriya ishlarini olib boruvchilardir. Ilmiy bo'limning asosiy vazifasi muhofaza ostiga olingan, qo'riqxonada hududidagi noyob tabiiy majmualar, o'simlik va hayvonlarning irsiy fanlarni o'rganish, tabiiy landshaftlar, tabiiy jarayon va hodisalarni o'zaro bog'liqligini o'rganish hamda kuzatish ishlarini olib boradi. Shuningdek qo'riqxonaning tabiiy solnomasini yuritish, hayvonot olamini hisobotini olish, hozirgi vaqtda ushbu vazifalarni bajarish uchun 4 ta katta ilmiy xodimga quyidagi 4 ta ilmiy ish yuklatilgan. Ular Hisor tog' tizmasidagi Sibir tog' echkisining biologiyasini o'rganish, qo'riqxonadagi noyob qushlar biologiyasini o'rganish, tog' archazorlarini tabiiy tiklanish metodlarini o'rganish, ishlab chiqish va Hisor davlat qo'riqxonasi fenologiyasini o'rganish, qo'riqxonada ilmiy xodimlarining kuzatish olib borgan tadqiqotlari va ilmiy xulosalari “O'zbekiston qo'riqxonasi ishlari” haqidagi yillik axborotnomaga ikki marta shuningdek, Pokistondagi 1997-1999 yillardagi simfozimda qo'riqxonada ilmiy xodimlari

tomonidan ikkita ilmiy ma'ruza o'qilgan. Bu ma'ruza Jahon hamjamiyatining oynomasida chop etilgan. Shu haqdagi materiallar va oynomalar qo'riqxon kutubxonasida saqlanadi. Ilmiy xodimlar tomonidan kitob nashr qilingan. Ilmiy ishlarni olib boorish, kuzatish va birinchi ma'lumotlarni olish uchun qo'riqxon hududida 6 ta botanic sinov maydonchasi, 8 ta zoologiya kuzatish nuqtas va hayvonot olamini hisobini yoritish uchun 16 ta doimiy mutloq yurish (marshruti) yo'li belgilangan. Har yili shu marshrut bo'yicha ikki marta hayvonlar hisobi o'tkaziladi. Bu vaqtda hayvonlardan olingan birinchi ma'lumotlar ilmiy bo'lim tomonidan qayta ishlanib, xulosalar tayyorlanadi. Ilmiy bo'lim texnik zihozlangan transportga ega. Qo'riqxonada ilmiy kengash tashkil etilgan bo'lib, ular belgilangan ma'ruzalarni olib, ish bajarilishi va ularning ilmiy darajasini baholash, shuningdek bu materiallarni bio nazorat qilish ilmiy kengashiga taqdim etadi. Yig'ilish yiliga ikki marta o'tkaziladi. Archa biosenozini zamonaviy ravishda o'rganish. Ushbu masalani o'rganish uchun qo'riqxon teritoriyasida joylashgan tajriba maydoni o'rganib chiqilgan. Tajriba maydoni qo'riqxonaning g'arbiy qiyalik tarmog'ining tog' tizmalarida joylashgan.

Tajriba maydoni	T/r	Tajriba maydoni joylashgan bo'lim	Kvartal	Maydoni Ga	Vnum m	Razmer m
Tajriba maydoni arxal	1	Tanxoz bo'limi	27	0.30	2500	(50x60)
	2	Miraki bo'limi	20	0.3	1900	(50x60)
	3	Miraki bo'limi	20	0.3	2000	(50x60)
	4	Tanxoz daryo bo'limi	26	0.4	2000	(50x60)
	5	Qizil suv bo'limi	37	0.22	2300	(50x60)
	6	Qizil suv bo'limi	39	0.20	2200	(50x60)
	7	Qizil suv bo'limi	41	0.47	2400	72.5x55.5
	8	Qizil suv bo'limi	50	0.28	2500	40x50

arni hisobga olganimizda o'rtacha yoshi 200 yillikdir.

O'simliklarni zichligi va miqdorini aniqlashda har bir guruh organizmlar uchun zichlikni ifodalashni o'ziga xos usullari mavjud. Har bir namunada har xil sonli bir individ uchrashi mumkin o'sha individ uchragan ramkada o'simlik sonining o'rtachasi olinadi va o'sha bitta yerga 100 m² bo'lsa, unga ko'paytiriladi. O'rtacha

zichlik kelib chiqadi. Undan tashqari qaysi hayvon qaysi o'simlik turi bilan oziqlanadi va shu hayvon soni ko'paysa, uning oziqlanish ariali kengayadi. Keyin o'sha o'simlik turi kamaya boshlaydi. Hayvonlarni aniqlash usuli va tadbirlari quyidagilardan iborat. Qushlar va hayvonlar sonini aniqlashda ko'pincha tamg'alash usulidan foydalanadilar. Chunki ular doimiy harakatda bo'ladi tamg'alash uchun hayvonlar ushlanadi. Ushlangan hayvon ichida har xil yoshi, qarisi, sog'lom va kasali bo'lishi kerak. Shuning uchun ularni tasodifan ushlanadi. Qo'yib yuborilgan hayvonlar mavjud individga qo'shib ketadi. Ikkinchi ovlanganlarida tamg'alangani tamg'alanmaganidan kam bo'lmaydi. Ikkinchi marta ovlangan hayvon yoki ma'lum individ bir avlod berishi kerak. Ushlangan hayvonlarning tamg'alanganlarining soni olinadi. Shunga ko'ra ko'payish zichligi va shunga o'xshash masalalar aniqlanadi. Undan tashqari qishda ayrim hayvonlarni qordagi izlariga qarab, erkak va urg'ochisining sayrashiga ko'ra ham aniqlanadi.

Suv miqdorini aniqlash. Ko'p yillik yog'in miqdoriga bog'liq. Qashqadaryo viloyati suv havzalarining ko'pchiligi tog' daryo muzliklarining mahsulidir. Qashqadaryoning boshlanish irmoqlari Oq daryo, Qizil daryo, Tanxos kabilardir. Daryo bo'yidagi stansiyalar kunlik, haftalik suv oqish tezligini o'lchaydi. Keyingi o'lchash joyi o'sha daryo irmoqlarining quyilish joyida ham xuddi shunday kuzatish ishlari oib boriladi.

Yillik yog'inni oylarda taqsimlanishi

T/r	Metostansiyalar	Oylar										Yillik mm
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	
1	Toshqo'rg'on	39	52	82	91	52	17	4	42	17	35	434
2	Mingchuqur	72	96	126		60	61	20	18	32	66	603

Tuproqdan namunalar olib laboratoriya ishlarini qilish uchun sharoit. Qo'riqxonada laboratoriya xonalari yo'q. Ilmiy xodimlarning o'simliklarni o'rganishning qo'riqxonadagi bor bo'lgan 870 tur ichida 32 turi noyob va yo'qolib borayotgan turdir. Hayvonot olamini o'rganishda esa ularning soni quyidagilardan: sut emizuvchilarning 31 turi, qushlarning 116 turi, sudralib yuruvchilarning 9 turi, suvda ham quruqlikda yashovchilarning ikki turi, baliqlarning ikki turi aniqlangan. Tur soni aniqlanganlarida esa qo'ng'ir ayiq 92 bosh, to'ng'iz 280 bosh tog' echkisi

928 bosh, burgut 69 bosh, kaklik 12970 bosh. Noyob tur fauna va florasini saqlash uchun faqat biologik bo'limlar kamlik qiladi. Qo'riqxonaning yana bir vazifasi o'simliklarning 1:50000 va 1: 25000 masshtabda kartalashtirish lozim. O'simliklar kartalari botanik, geografik jihatidan kartalashtiriladi. Huduning balandlik mintaqalar majmuasi ajratiladi va hayvonot dunyosi ham kartalashtiriladi. Qo'riqxonada xodimlari belgilangan hududlarda yong'in chiqishini oldini olish, sayoq ovchilarni kiritmaslik tog' tabiatni saqlash sohasida samarali ishlar qilmoqda. 1998 yil Respublika bionazorat boshqarmasi tomonidan qo'riqxonada xodimlariga 30 tasiga raqamlar tarqatilgan 2-3 yillik muddat bilan 4 ta bo'limga guvohnomalar topshirildi. 2000-yil 30-martda qo'riqxonadagi to'rtta bo'limda 10-sonli buyruqqa asosan tezkor guruh tashkil etilgan ular tomonidan o'tkazilgan tadbirlar shuni ko'rsatadiki, 1997-yildan 1999-yilgacha aniqlangan qonunbuzarliklar soni 63taga belgilangan. Jarima 81400 so'm, undirilgan jarima 63600 so'm, yetkazilgan zarar 213300 so'm, 9 tasi sudga o'tkazilgan. Qo'riqxonada xodimlariga berkitilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Asosiy tabiat majmualarini saqlash;
2. O'simlik va hayvonlarning noyob va nodir turlarini asrash, hisobga olish hamda saqlash;
3. Kam o'rganilgan o'simlik va hayvon turlari bo'yicha to'liq xo'jalik hisobi o'rnatish;
4. Tabiiy archalarni saqlash va ularni qayta tiklash;
5. Tabiiy buloqlar suv rejimini nazorat qilishdir.

Har yili turistlar Amir Temur g'orini ko'rishga keladi. Undan tashqari eramizdan avval yashagan dinosavrlar izlari mavjuddir. Shu tarixiy yodgorliklarni ko'rishga kelgan kishilar o'simlik va hayvonot olamiga katta ta'sir o'tkazish mumkin. Shuning uchun qo'riqxonada xodimlari g'orlarga borish marshrutlarini belgilab chiqishgan. Undan so'ng ular bevosita o'sha yerda yashovchi kishilarga tushuntirish ishlari olib boradilar. Biz hozirgi tabiatni kelajak avlodga hozirgi holatini saqlagan holda yetkazib berishimiz kerak.

Xulosa

Biz Hisor qo'riqxonasi haqida to'plagan ma'lumotlar va kuzatishlar asosida quyidagi xulosaga keldik.

1. Qashqadaryo tog'li zonasida tashkil etilgan Hisor qo'riqxonasi mintaqasida bioxilma-xillikni saqlash muhim ahamiyatga ega.
2. Qo'riqxonasi Hisor tog'ining g'arbiy qismida joylashgan, tabiiy geografik jihatdan qulay sharoitga egadir.
3. Qo'riqxonasi teritoriyasida mavjud o'simliklar 870 turdan iborat bo'lib, shulardan 32 tasi "Qizil kitob"ga kiritilgan.
4. Qo'riqxonada sut emizuvchilarning 31 turi, qushlarning 215 turi, sudralib yuruvchilarning 9 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning ham 2 turi saqlanib kelmoqda.
5. Hisor qo'riqxonasida olib borilgan ilmiy tadqiqot va amaliy ishlar bioxilma-xillikni muhofaza qilishdagi muhim amaliy chora tadbirlardir.

Takliflar

Biz eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan Hisor davlat qo'riqxonasi bio-xilma-xillikni muhofaza qilish masalalarini o'rganib quyidagi tavsiyalarni aytishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Qashqadaryo viloyatidagi "Hisor" qo'riqxonasida bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ayni muddao bo'lib, kelgusida bu ishlarni yanada kuchaytirish lozim.
2. Hisor qo'riqxonasida bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha olib boriladigan ishlarni viloyat aholisi o'rtasida targ'ibot qilish lozim.
3. Maktab, kollej o'quvchilarini va universitet talabalarini qo'riqxonaga ekskursiyaga olib borib, unda olib boriladigan ishlar bilan yoshlarni ko'proq tanishtirish kerak.
4. Nafaqat qo'riqxonada, boshqa joylarda ham bio xilma-xillikni asrash borasida aholi o'rtasida tushutirish ishlarini olib borishni kuchaytirish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish Toshkent "O'qituvchi" 1991.
2. Bagdanov O.V. Turkistondagi qo'riqxonalar va ularning hayoti. Ekologik xabarnoma 4- son 2000.
3. Bobobekov I. O'zbekistonning muhofazaga muxtoj daraxt va butalari. Ekologik xabarnoma 5- son 2005.
4. Egamberdiyev R. Ekologiya asoslari T. "Zarqalam" 2004.
5. Egamberdiyev R. "Ekologiya" Noshir. T. 2010.
6. Lim V.P, Beshko N.Y. O'zbekiston qo'riqxonalarini tirik javohirlari. Toshkent Chinor ENK, 2013.
7. Mamatov A.M., Abdullayev S.I., Xo'jamqulov B.E. Hisor davlat qo'riqxonasi o'rta osiyo tog' tabiatining andazasi. Qarshi Nasaf 2010.
8. Tilovov T. "Ekologiya" Toshkent "O'qituvchi" T-2014.
9. To'xtayev H. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. "O'qituvchi" T. 1994.
10. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya Toshkent Chinor ENK, 2013.
11. Jabborov A.R., Fundukchiyev S.E. O'zbekistonda "Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakat rejasi" ning mohiyati to'g'risida.
12. O'zbekistonning Respublikasi bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi. 1996 y
13. "O'zbekiston Respublikasi xilma-xiligining ekologik muammolari" Navoiy – 2006.
14. <http://www.hisor.uz/uz/node/25>
15. Email: hisor bars@ mail.ru
16. Email: aromov 83@ mail.ru